

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАЎСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ КИМЁ ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ
“НООРГАНИК МОДДАЛАР КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯСИ” ФАКУЛЬТЕТИ
“САНОАТ ЭКОЛОГИЯСИ” КАФЕДРАСИ

**“Тошкент шаҳрида саноат корхоналаридан ҳосил бўлаётган оқова
сувлар мониторингини олиб бориш”**
мавзусидаги лойиҳавий битирув малакавий иши учун

**МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИНИНГ ҲИСОБ-ИЗОҲ
ЎЗУВИ**

Кафедра мудири _____ доц.Пулатов Х.Л.
(имзо) (сана)

Битирув малакавий иши раҳбари _____
(имзо) (сана) (ф.и.ш.)

Қисмлар бўйича маслаҳатчилар:

Технологик қисм _____
(ф.и.ш.) (имзо) (сана)

Автоматлаштириш _____
(ф.и.ш.) (имзо) (сана)

Меҳнатни муҳофаза қилиш,
фуқаро муҳофазаси _____
(ф.и.ш.) (имзо) (сана)

Иқтисодий қисм _____
(ф.и.ш.) (имзо) (сана)

Малакавий битирув ишини
бажарувчи _____
(ф.и.ш.) (имзо) (сана)

Тошкент - 2014 й.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI.....	8
1.1 O`zbekistonning ekologik siyosati	9
1.2. O`zbekistonda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish	14
2-BOB. EKSPERIMENTAL QISM.....	44
2.1. Tabiiy va oqova suv suvlar tarkibidagi iflosliklarni tahlil qilish.....	45
3-BOB. OLINGAN NATIJALAR MUHOKAMASI.....	51
3.1. Toshkent shahridagi suv havzalarining holatini baholash.....	52
3.2. Salar daryosi tarkibidagi zaharli moddalarning miqdorini aniqlash va uning monitoringi	58
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH	70
FUQARO MUHOFAZASI.....	76
XULOSALAR.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	85

KIRISH

KIRISH

Uchinchi ming yillikning boshlanishi ikki muhim tendensiya bilan baholanadi. Birinchidan hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolarga jumladan, iqlim o'zgarishi, ozon qatlami yemirilishi, ichimlik suvining tanqisligi va ifloslanishi, yer va o'rmonlar tanazzuli, biologik xilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha chiqindilarning hosil bo'lishi hamda ularni utilizatsiya qilish duch keldi. Ikkinchidan, dunyo jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan hozirgi vaziyatni obyektiv baholashning iloji yo'q.

O'zbekiston Respublikasida atrof muhit holati, unga ta'siri va muhofaza qilish, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni baholash mexanizmi yoki keng ma'noda umumlashtirilgan integral tahlili so'nggi 20 yilda katta odimlar bilan rivojlandi.

Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda planetamizda har xil yoqilg'ilarni yoqish sababli har yili 10,1 mlrd.tonna kislorod sarf bo'lmoqda, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o'zlashtirilib foydalanilmoqda, o'rmonlar egallagan maydonlar yildan-yilga kamayib bormoqda, cho'l zonalarining maydoni oshib bormoqda, havo harorati yildan-yilga kutarilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi har yili o'sib borib, tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida yanada ko'proq foydalanishga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek texnikaning, sanoat korxonalarining rivojlanishi ham atrof-tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bularning oqibati o'laroq dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli xil kasalliklar kelib chiqmoqda. Planetaning taqdiri uchun inson tomonidan o'tgan asrdayoq bong urilgan, hozirgi yuz yillikda esa atrof-tabiiy muhitga nagruzkani ortib ketishi natijasida dunyo ekologik tizimi inqiroz darajasiga yetdi. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, tabiiy resurslarni ishdan chiqarish, ekotizimdagi ekologik aloqalarni buzish global muammo bo'lib qoldi. Agar insoniyat hozirgi tarraqiyot yo'lidan borishni davom ettirsa uning halokati ikki-uch avlod yashab o'tgandan so'ng yuz berishi ehtimoldan xoli emas. "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning

manfaatlariga mos bo`lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko`p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog`liqdir".

Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tabiat bilan jamiyat bir-biri bilan o`zaro uzviy aloqa, chambarchas bog`liqlikda bo`ladi. Bu uzviylik, o`zaro ta'sir tabiatning umumiy qonuniyatlariga mos kelishi, o`zaro teng muvazanatda bo`lishlikni talab etadi. Aks holda bu muvozanatning buzulishi salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mavjudodning yashashiga xavf soladi. Shu sababdan, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo`lish, undan oqilona foydalanish, uni muhofaza etish lozimdir. Tabiat obyektlaridan foydalanishda shunday vositalarni topish, ularni qonunlarda o`rnatish, amaliyotga qo`llash lozimki, bu bir tomondan, xo`jalik faoliyati taraqqiyotini ta'min etsin, ikkinchi tomondan, tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilsin. Shuni aytish kerakki, tabiatni muhofaza qilish bahonasida ishlab chiqarish manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishga ham yo`l qo`yish yaxshi holat emas. Shuningdek iqtisodni rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga keng yo`l ochib berish, iqtisodiyot va ekologiya manfaatlarini bir biriga qarama-qarshi qo`yish ham mumkin emas. Sanoatni, qishloq xo`jaligini boshqa sohalarni tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish vazifalarini hal etish asosida taraqqiy ettirishni ta'minlash lozim. Muammoni shunday tartibda hal etish kerakki, bunda birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishda ekologiya ham, iqtisodning ham manfaatlari hisobga olinsin, ikkinchidan, ularning uzviyligini ta'minlash mumkin bo`lmasa, ustuvorlik ekologiyaga berilishi kerak. Huddi shunday prinsip O`zbekiston davlati olib borayotgan ekologik siyosatda, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan tabiiy atrof muhitni muhofaza etishga bag`ishlangan qonunlarda o`z ifodasini topgan. Buning yuridik ifodasi sifatida ekologik ekspertizani, xo`jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirishda ekologik talablarni, ekologik talablarga javob bermaydigan korxonalar va obyektlarni foydalanishga kiritish man qilinishini ko`rsatish mumkin.

O`zbekiston davlatining atrof-tabiiy muhitni sog`lomlashtirish chora-tadbirlari bo`yicha amalga oshirayotgan ishlariga qaramasdan ekologik

munosabatlar hali ham tabiat va jamiyat uchun nomutanosib darajada rivojlanishni davom ettirmoqda. Buni biz, birinchidan, tabiatdan foydalanishda sohaviy yondoshishni, ya'ni har bir tashkilot faqat o'z manfaatini ustun qo'yib tabiiy resurslardan foydalanishi va, ikkinchidan, tabiatga faqat resurs sifatida qarashni, ya'ni tabiatdan foydalanish birinchi darajali, uni himoya etish esa ikkinchi darajali sifatda qarashda ko'ramiz.

Mustaqillik yillarida respublikamizda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini boshqarib turadigan qariyb 30 ta qonun va 350 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Ushbu qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablarini bajarmaslik, respublikamizda, har birimiz yashab va ish faoliyatimizni olib borayotgan hududda atrof muhitni, hususan suv, yer, atmosfera havosi ifloslanishiga, yerlarni erroziyaga uchrashi, quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarini filtrlovchi "ozon qatlami"ni yemirilishiga, o'simlik va hayvonot dunyosini, biologik xilma-xillikni qisqarishiga, insonlar salomatligiga va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek, «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'zini o'zi o'limga mahkum etish bilan barobardir». Ekologik vaziyatni yaxshilashga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a'zosida zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzuidagi ma'ruzasida atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va o'rnini belgilashga qaratilgan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vaqti yetganligi alohida ta'kidlangan edi. Konsepsiyada belgilab berilgan dasturiy vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Ekoharakat deputatlari guruhi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi a'zolaridan iborat ishchi guruhi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun loyihasini tayyorladi. Mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, birinchi o'qishda qabul qilindi.

1-BOB.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1-BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI

1.1 O`zbekistonning ekologik siyosati

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko`pmi O`zbekiston Respublikasining ishtiroki bor. Istiqomat qilayotgan 24 mln.dan ziyod aholining yarmidan ko`prog`i ekologik xavfsiz bo`lmagan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro`y bergan ekologik inqiroz holati Sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezident I.A.Karimov, ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg`unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqdalar.

XX asr oxiriga kelib O`zbekistonda quyidagi taktik va strategik yo`nalishlar ishlab chiqilgan: «2005 yilgacha bo`lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi», «O`zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning ekologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasi», «O`zbekiston Respublikasida atrof muhit gigiyenasi bo`yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo`yicha milliy strategiya va reja». Bu hujjatlarda davlatimizning jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabat shakli, hozirgi kunda va kelajakda qanday bo`lishi, O`zbekistonning ekologik konsepsiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo`nalipshari ko`rsatib o`tilgan.

O`zbekiston Respublikasi ekologik siyosatitng asosiy maqsadi — kishilarning hayotiy zarur bo`lgan ekologik xavfsiz muhitini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ya'ni tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo`llash.

Biz bilamizki, mustaqillik davrigacha O`zbekiston hududi Chor Rossiyaga, so`ngra Sovet Ittifoqining xom ashyo yetishtirib beradigan chekka o`lkasi bo`lib hisoblangan. Shuning uchun ham tabiiy va mineral xom ashyo zahiralaridan maksimal holda ekstensiv usulda foydalanilgan, ya'ni iqtisodiy munosabat shaklida

bo'lgan. Bunday totalitar tuzumdagi munosabat shaklidan birdaniga ekologik munosabat shakliga, jamiyatda na iqtisodiy, na huquqiy, na ijtimoiy-madaniy asosi yaratilmay turib o'tishni, hattoki nazariy jihatdan ham amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi tanlagan yo'li tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni iqtisodiy-ekologik shakli, ya'ni bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o'tishga asos bo'lmog'i darkor.

29 avgust 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi to'g'risida»gi Qonunida mamlakatimizning ekologik konsepsiyasi berilgan bo'lib, unda quyidagilarga e'tibor berilgan:

— shaxsning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan kishilarni sog'ligini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish;

—jamiyatning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mo'tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, aholining sog'ligini ta'minlash, jismoniy bakuvvat avlodni shakllantirish;

—davlatning hayotiy zarur ehtiyojlari bo'lgan barqaror rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiy holatni mo'tadillashtirish, sog'lom hayot tarzini shakllantirish.

Shunday qilib O'zbekiston uchun yagona bo'lgan shaxs, jamiyat va davlatning xayotiy zarur extiyojlaridan biri — ekologik xavfsiz muhit milliy xavfsizlikning ajralmas bir bo'lagidir. Respublikamiz ekologik siyosatining asosiy maqsadini bajarmoq uchun organik rivojlanish bilan bir qatorda muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasini qo'llashni ma'qul deb topgan. Bu degan so'z shaxs, jamiyat va davlatning ekologik talablarini mintaqalar bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish talablariga moslashtirish kerak.

I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» degan asarida hamda «2005 yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi»da yuqorida aytilgan maqsad va konsepsiyalarni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

—ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, xalq xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Atmosfera havosi va suvlarni insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish;

—qishloq xo'jalik ekinlarini, eng avvalo, g'o'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish. Kollektor-zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqava suvlarni chiqarib yuborishni batamom to'xtatish zarur;

—sanoat korxonalarida atmosferaga, xavosiga, suv xavzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda mas'uliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan tayyor, pirovard mahsulot olganga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o'rnatish lozim;

—qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlangan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor;

—foydali qazilmalardan oqilona foydalanish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan to'liq foydalanishni ta'minlash darkor va uning uchun eskirgan uskunalarni almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sexlar, uchastkalar va korxonalarni rekonstruksiya qilish asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to'liq va oqilona qazib olish muhim vazifadir. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun tog'-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish (rekultivatsiya qilish) muhim ahamiyatga ega;

—keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadli, ilmiy asoslangan

tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir xavzadan ikkinchisiga tashlash, yerning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash, suv chiqarish tadbirlarini va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish) lozim;

—jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash, tabiiy genofondni madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak;

—qurilish va obodonlashtirishni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirga zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va aholi punktlarda ekologik xavfsiz muxitni tarkib toptirish;

—jahon jamoatchiliga e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning tasiri hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim;

—xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalb etish — birinchi darajali vazifadir.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yuqorida aytib o'tilgan mo'ljallangan tadbirlarni amalga oshirish uchun «Tabiatni muhofaza qilishning Milliy Dasturi»da quyidagi prinsiplarga amal qilishni tavsiya etilgan:

- davlat ekologik islohotlarning yo'lboshlovchisi bo'lmog'i darkor;
- ekologik xarajatlarni moliyalash va uning yangi sxemalarini jalb qilish;
- makroiqtisodiy va sohaviy ekologik siyosatni takomillashtirish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish;
- atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash maqsadini qo'yish va standartlashtirish;
- ishlab chiqarishning ekologik talablarini chuqurlashtirish va h.k.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida aytib o'tilgan ekologik siyosatini amalga oshiruvchi tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat shakli, tabiat qonuniyatlariga jamiyat qonunlarini moslashtirish, ekologik chora-tadbirlar va

asosiy tanlangan tamoyillarning hayotga tatbiq qilish mexanizmi ishlab chiqilsa va amaliyotda ular o'z tadbig'ini topsa, so'zsiz, bizning mamlakatimiz yaqin kelajakda ekologik munosabat shakliga o'tib olishi mumkin. Bunday siyosat shaxsning, jamiyatning va davlatning hayotiy zarur bo'lgan milliy xavfsizligani ta'minlashda katta omil bo'lib xizmat qilishiga hech shubha yo`q.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida-talablari va tamoyillari asosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinadi.

Asosiy qonunimizda davlat ekologiya siyosatining asosiy yo`nalishlari belgilansa, ushbu konstitutsion qoidalarga mos ravishda qabul qilinadigan qonunlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning talablari, mexanizmi mustahkamlanadi.

Respublikamiz mustaqilikka erishgandan so`ng O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonunlari qabul qilindi:

1. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida» gi qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy xududlar to`g`risida» gi qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat saniyatariya nazorati to`g`risida» gi qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to`g`risida» gi qonuni;
5. O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida» gi qonuni;
6. O'zbekiston Respublikasining «O`simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida» gi qonuni;
7. O'zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida» gi qonuni;
8. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»;

9. O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida» gi qonuni;
10. O'zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to'g'risida» gi qonuni;
11. O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida» gi qonuni;
12. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to'g'risida» gi qonuni;
13. O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida» gi qonuni;
14. O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida» gi qonuni;
15. O'zbekiston Respublikasining «Xizmat va mahsulotlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» gi qonuni;
16. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni;
17. O'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni;
18. O'zbekiston Respublikasining «Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni va boshqalar.

Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekt va subyektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi, muddati va talablari, ekologik qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari kabi ekologik-huquqiy qoida talablari belgilangandir.

1.2. O'zbekistonda Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ekologik tanglik bor paytda mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tabiatning barcha boyliklar qatori, suv resurslariga ehtiyojlari benihoya katta. Kelajak avlodimizning taqdiri, baquvvatligi, sog'ligi obi-hayotimiz bilan bog'liq ekan, demak, ayni shu kunlarda qabul qilinayotgan suv to'g'risidagi qonun, qaror va farmonlar, suv boyliklaridan oqilona

foydalanish, uni bulg`anish va ifloslanish hamda kamayib ketishidan saqlash ishiga ko`maklashishi lozim. Asosan suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish maqsadida huquqiy ilmiy yo`nalishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi talablar hamda suv resurslaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish, umuman olganda suv resurslari bilan bog`liq barcha muammolar, O`zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan qonunida o`z aksini topdi.

O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan, "Suv O`zbekiston Respublikasining davlat mulki - umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo`lib, u davlat tomonidan qo`riqlanadi."

O`zbekiston Respublikasining "Yer Kodeksi"ning 39-moddasi "Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlari" sifatida barcha yer egalari, yerdan foydalanuvchichlar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari ham suv resurslaridan oqilona foydalanishlari va ularni muhofaza qilishlari shart.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining "Qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risida" gi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan qonunining 16-moddasida qishloq xo`jaligi kooperativlari (shirkat xo`jaliklari) uchun suvdan foydalanishlari, "Fermer xo`jaligi to`g`risida" gi qonunning 14-moddasida fermer xo`jaliklari uchun suvdan foydalanish, "Dehqon xo`jaligi to`g`risida" gi qonunning 11-moddasida dehqon xo`jaliklari uchun suvdan foydalanishning huquqiy tartiblari ko`rsatilgan.

Bundan tashqari O`zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida" gi qonunining 19-moddasida "Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari" ham aniq ko`rsatilgan.

Jumladan, unda O`zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning normativida ko`rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash, suv o`simliklari va hayvonlarini asrash, suv havzalarining ifloslanishiga yo`l qo`ymaslik, ularda

ekologiya muvozanatini saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik sharti bilan yo`l qo`yiladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari, o`rmon va suv xo`jaligi idoralari daryo irmoqlari hosil bo`ladigan joylarda, suv havzalari sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtni ko`paytirishlari hamda ularni saqlashini ta'minlashlari shartdir.

Suv resurslarini huquqiy ekologik jihatdan muhofaza qilish O`zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning XXIV bobi, 97-102 moddalarida ko`rsatilgan.

Mustaqil respublikamizda suvni muhofaza qilish vazifalari shundan iboratki, "Hamma suvlar (suv obyektlari) aholi sog`lig`iga zarar yetkazishi, shuningdek baliq zahiralarining kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik hossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko`ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak.

Shunisi e'tiborliki, suv to`g`risidagi ushbu yangi qonunda, suvni muhofaza qilishni, shuningdek uning holati va rejimini yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish, faoliyati suvlarning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar, mahalliy hokimiyat organlari, tabiatni muhofaza qilish, suv xo`jaligi, sanitariya nazorati organlari hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan kelishilgan holda texnologiya, o`rmon melioratsiya va agrotexnika, gidrotexnika, sanitariya-texnika tadbirlarini o`tkazishlari shart"-deb ko`rsatilgan.

Hozirgi sharoitda suvlarni ifloslantirish asosan chiqit va chiqindilarni befarqlik oqibatida tashlash, oqizish natijasida bo`lmoqda. Ayni, mana shu muammo ushbu qonunning 99-moddasida ifodalangan. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga quyidagilar taqiqlanadi:

- ishlab chiqarish chiqitlari, maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda chiqindilarni suv obyektlariga tashlash;

- moylarning, yog`ochlarning, kimyoviy va neft mahsulotlarining hamchda boshqa mahsulotlarning to`kilib-sochilishi natijasida suvni bo`lg`atish va ifloslantirish;

- suv havzalarining yuzi, suv havzalarini qoplab turgan yaxlar va muzliklarning yuzasi, sanoat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa tashlandiq chiqitlar, shuningdek, yer usti va yer osti suvlarning sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy mahsulotlar bilan bulg`atish va ifloslantirish;

- suvni o`g`itlar va zaharli ximikatlar bilan bulg`atish.

Oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishga ushbu qonunning 73, 74 va 75-moddalarida ko`rsatib o`tilgan talablarga rioya qilingan taqdirdagina yo`l qo`yiladi. Shuningdek amaldagi qonunda, aynan yer osti va kichik daryolarni suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga e'tibor berilgan.

Mazkur qonunning 101-moddasida, yer osti suvlarini muhofaza qilish tartibi ifodalangan.

Yer osti suvlari chiqarish va undan foydalanish bilan shug`ullanuvchi idoralar suv chiqarilayotgan uchastka va unga tutash hududlarda yer osti suvlariga doir rejimlarga rioya etilishini kuzatib borishlari, shuningdek foydalanilayotgan suvning miqdori va sifatining hisobini yuritishlari shart.

Basharti foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni o`rganish va ulardan foydalanish bilan bog`liq burg`ilash hamda boshqa kon qidiruv ishlarini bajarish chog`ida yer osti suvyalari bor qatlamlar aniqlangan taqdirda, bu haqda tabiatni muhofaza qilish, suv xo`jaligi organlariga ma'lum qilinishi hamda belgilangan tartibda yer osti suvlarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko`rilishi lozim. Sanoat oqindi suvlarini oqizish uchun qaziladigan quduqlar suvli qatlamlarni ifloslantirish manbaiga aylanishi mumkin bo`lsa, bunday quduqlar qazish hollari man etiladi.

O`z-o`zidan suv chiqarib, suvi foydalanish uchun yaroqsiz bo`lgan quduqlarga suvni boshqarish uskunalari o`rnatilishi, ular qonunlarda belgilangan tartibda to`xtatib qo`yilishi yoki tugatilishi lozim.

Sifatli yer osti suvlari to'planadigan manbalar tegrasida qattiq va suyuq chiqindilar to'plash, axlatxonalar barpo etish, yer osti suvlarining ifloslanish manbaiga aylanish ehtimoli bo'lgan sanoat, qishloq xjalik obyektlari va boshqa obyektlar qurilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yer osti suvlarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'rish, shu jumladan quduqlarni kuzatish tarmog'ini yaratish faoliyati yer osti suvlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu moddada yer osti suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga har tomonlama e'tibor berilgan.

Yoyinki, xo'jalik faoliyati kichik daryolarning holati va rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda suvni, uning musaffoligi va sifatini saqlash chora-tadbirlarini ko'rishlari lozim.

Kichik daryolarning suvini muhofaza qilish mintaqalari, bu mintaqalardagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning xo'jalik faoliyati rejimi qonunlar bilan belgilanadi.

Suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilishning eng yaxshi yo'li markazlashgan suv ta'minotini tashkil qilishdan iborat.

Ochiq suv havzalaridan suv olinadigan joyni tanlashda suvning ifloslanmasligi, suv havzasiga yetarli miqdorda suv tushib turishini, suv havzasi atrofining to'silganligini, qirg'oqning buzilmasligini hisobga olish kerak. Suv olinadigan joyni tanlash har safar murakkab sanitariya masalasi hisoblanadi. Muhimi, suv olinadigan joy oqava suvlar tushadigan joydan va aholi yashaydigan territoriyadan ancha yuqori yerda bo'lishi kerak. Bunda aholi yashaydigan punktning istiqboli, ya'ni kengayishi nazarda tutiladi. Shuningdek, suv olinadigan joy daryo irmoqlari va soylardan yuqorida bo'lishi lozim. Suv daryo qirg'og'i chuqurligi kamida 2,5 metr bo'lgan, qirg'og'i yuvilmaydigan joydan olinadi. Bu qoida suv omborlariga ham tegishlidir.

Har qanday suv manbai, ayniqsa ochiq suv havzalari tashqi muhit bilan bog'langanligi va suv sifatiga suv oqimi hosil bo'lishi sharoitlari, tabiiy hodisalar,

sanoat va kommunal qurilishlar, aholining xo`jalikdagi va turmushdagi faoliyati ta'sir qilishni hisobga olib, vodoprovod qurilishida albatta sanitariya zonasi tashkil etish kerak.

Mavjud qonunchilikka asosan vodoprovodi bor tashkilotlar barcha vodoprovodlar uchun sanitariya muhofazasi zonasi tashkil qilishlari kerak.

Suvni muhofaza qilish tadbirlarini barcha ochiq suv havzalari, yer osti suv manbalarida ular markazlashgan yoki markazlashmagan suv ta'minoti uchun foydalaniladimi-yo`qmi, bundan qat'iy nazar, amalga oshirish shart.

Sanitariya maishiy suv ta'minotidan foydalanadigan rayonlarda sanitariya muhofaza zonasi yaratish zarur. Bunday hollarda sanitariya nazorati organlari va shu territoriyadagi suvdan foydalanishni va muhofaza qilishni boshqaradigan organlarga quyidagi hajmda yer ajratiladi:

- ochiq suv havzalari uchun 100 m. Suvning ikkala qirg`og`iga inspektorlik yo`llari qilinadi, ko`kalamzorlashtiriladi, shahar doirasida esa qirg`oqlar qo`shimcha ravishda obod qilinadi;
- o`zanli va suv quyilib turadigan suv ombori uchun 300 m chor atrofi muhofaza qilinadi;
- artezian quduq uchun foydalaniladigan ayrim quduqlar, buloqlar va chashmalar yoki yer osti suvlari usti 30 m radiusda suvga chidamli materiallar bilan tom qilib, yopiladi, maydoni kamida 0,25 ga bo`ladi;
- ayrim quduqlar uchun yer osti suvi yoki infiltratsion suvdan foydalanganda 30 m radiusda usti yopiladi, maydoni kamida 0,75 ga bo`ladi.

Ayrim rayonlarda, masalan, yirik shaharlar yoki korxonalarida qishloq xo`jaligida zaharli ximikatlar ko`p ishlatilganda sanitariya nazoratining tegishli organlari talabiga ko`ra bu zonalar kengaytirilishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi sharoitda qishloq xo`jaligi va boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarda hamda respublikamizda suvdan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilishning bir qator ilmiy huquqiy ekologik yechimlari ayrim huquqiy adabiyotlarda yoritilgan.

Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti va turmush tarzi yana yangi-yangi huquqiy-ilmiy va ekologik yechimlarni qo'llashni talab qiladi.

Zero, suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qilib, gigiyenik jihatdan muhim ahamiyatga ega, hattoki kasallik tarqalishining oldini olishda ham ahamiyati kattadir.

Suv manbalarini ekologik muhofaza qilish, hayoti suv bilan bog'liq bo'lgan butun jonzotni o'simliklar va hayvonot dunyosini, umuman olganda ona tabiatni saqlab qolishga yordam beradi.

Ob-hayotdan foydalanishdagi boshboshdoqlik va mas'uliyatsizlik yomon oqibatlariga olib kelishini O'rta Osiyoda tashkil topgan mustaqil davlatlar hamda Qozog'iston Respublikasi melioratsiya va suv xo'jaligi xizmati rahbarlari obdon mulohaza qilib ko'rdilar. Bu masalaning ahamiyati va murakkabliklarini tushinib yetdilar.

1992 yilning 18 fevralida Qozog'iston Respublikasi poytaxti Olmaota shahrida mintaqadagi davlatlararo suv zahiralarini birgalikda boshqarish va muhofaza qilish yuzasidan ahdlashuvga kelishildi. Ahdnoma xujjatini O'rta Osiyo respublikalari hamda Qozog'iston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirlari imzoladilar. Xujjatda suv manbalaridan oqilona foydalanishga, suv zahiralarini muhofaza etishda mintaqadagi barcha davlatlar teng huquqli hamda baravar mas'uliyatga ega ekanliklari ko'zda tutildi. Har bir respublika o'z hududida ahdnomaga asosan amal qilish majburiyatlarini oldi. Jumladan, ahdlashuvchi tomonlarning manfaatlarini hurmat qilish, suvdan foydalanishda bir-biriga ziyon yetkazmaslik, suvdan foydalanish va uning zahiralarini ifloslantirmaslik haqida Ahdnomada ko'zda tutilgan talablarga og'ishmay amal qilish majburiyatlari nazar-e'tiborda tutiladi, deb kelishib olindi.

Tomonlar suvni isrof qilmaslik, bu bebaho boylikdan samarali foydalanish xususida, shuningdek, ekologiya muammolari, Orol dengiziga har yili zarur miqdorda suv o'tkazib turish haqida bamaslahat bir fikrga keldilar.

1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib u suv va suvdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishdan, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashdan, suvning zararli ta'sirini oldini olish va uni bartaraf qilishdan, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'ldi.

Mazkur, qonunda birinchi marta yagona davlat suv fondi masalasi ko'rsatib berildi.

O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi:

- o daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan;
- o yer osti suvlari va muzliklardan iboratdir.

Davlatlararo daryolar - Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi. (4-Modda).

Shuningdek, qonunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham aniq ko'rsatildi.

Jumladan qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari quyidagicha ko'rsatildi:

- suvga doir qonunlar qabul qilish, ularga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish;
- suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda suv xo'jaligiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasarrufiga kiradigan boshqa masalalarni hal etish.

Ushbu qonunning 6-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlariga e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi tasarrufiga quyidagilar kiradi, chunonchi:

- suv resurslaridan oqilona, kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida yagona siyosat o'tkazish;
- suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza etishda vazirliklar, idoralar va yuridik shaxslarning faoliyatini uyg'unlashtirish;
- suv fondi hosil qilish va undan foydalanish tartibini belgilash, suvdan foydalanishning me'yorlari va limitlarini tasdiqlash;
- suvlarning davlat tomonida hisobga olib borilishini hamda suvdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta'minlash, davlat suv kadastri va suv monitoringini yuritish;
- yirik avariylar, falokatlar, ekologiya tangligi va suvlarning zararli ta'siri oldini olish hamda ularga barham berish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun haq to'lash, suv obyektlarini bulg'atganlik va quritib qo'yganlik uchun haq undirish tartibini belgilash;
- davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish;
- qonunlarda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

E'tiborli tomoni shundaki, mazkur qonunda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi tasarrufiga quyidagilar kiradi, chunonchi:

- o'z hududidagi suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ularni muhofaza qilish sohasidagi qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta'minlash;

- suv obyektlari holatini hisobga olib borish va ularga baho berish, suvlardan foydalanilishi va ularning muhofaza qilinishi, suv iste'molining belgilangan limitlariga rioya etilishi, suvdan foydalanuvchilarning suvdan foydalanish hisobini yuritishlari ustidan nazorat qilib berish;

- suv obyektlarini saqlash va ularning holatini yaxshilash, suvlarning zararli ta'sir ko'rsatishini, shuningdek bulg'anishini oldini olish va uni bartaraf etish hamda avariylar, toshqin, sel va tabiiy ofatlar natijasida vayron bo'lgan obyektlarni tiklash yuzasidan tadbirlar o'tkazish;

- qonunlarda nazarda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish (7-modda).

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo'yilgan tartibga barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, davlat, kooperativ, jamoat korxonalari, tashkilotlari, muassasalari va fuqarolar rioya qilishlari, suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek, suv to'g'risidagi qonunlarda belgilab berilgan boshqa qoidalarni bajarishlarini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 8-moddasiga asosan suvdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagicha ko'rsatilgan.

Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek bu sohada maxsus vakolatli bo'lgan hamda suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga solib turuvchi davlat organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (yer usti suvlari), O'zbekiston Respublikasi Davlat Geologiya va Mineral resurslar qo'mitasi (yer osti suvlari) hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qo'mitasi (yer osti issiq suvlarni va mineral suvlar) o'z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolati bo'lgan davlat organlari hisoblanadi.

Ma'lumki, 1991 yildan boshlab suv uchun haq to'lashning uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy normativlarini belgilab qo'yish zarur deb topildi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradilar.

Suvdan foydalanish ustidan idoraviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi organlari amalga oshiradilar.

Bundan tashqari, suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolarning ishtiroki ahamiyatlidir.

Jamoat birlashmalari, jamoalar o'z nizomlariga muvofiq hamda fuqarolar suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadilar. Bu tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolar takliflarini hisobga oladilar.

Xullas, suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza etish ustidan davlat boshqaruvi hamda nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega bo'lib, suv resurslari oqilona foydalanishni, tejab-tergash va uni musaffoligini saqlashni hamda har qanday nojo'ya ekologik huquqbuzarliklarni oldini oladi.

Suvdan foydalanish huquqi tushunchasi asosan ikki holat bilan ko'proq bog'liq.

Birinchidan, u suv huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, suv va suvdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda suv bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, suvdan foydalanish va uni muhofaza etish bilan bog'liq bo'lgan suv foydalanuvchichlarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq.

Asosan suvdan foydalanish huquqi ko'proq suvdan foydalanish huquqini paydo bo'lishi va bekor bo'lish asoslari bilan ham bog'liqdir.

Suvdan foydalanish huquqi bir qator prinsiplarga asoslanadi:

- suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- suv resurslarini muhofaza qilish;
- boshqa barcha tabiat boyliklari bilan chambarchas bog`liqligi;
- suv resurslari qonunda ko`rsatilgan aniq maqsadlarda foydalanish;
- suvdan foydalanish davlatning ekologik siyosati bilan bevosita bog`liqligi;
- suvdan foydalanganlik uchun tegishli haq to`lash lozimligi;
- suv qonunchiligi bilan birga boshqa barcha ekologik qonunlarni o`z vaqtida, kechiktirmay amalga oshirish va bajarish;
- suvdan foydalanish bilan bog`liq xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni o`z vaqtida bajarish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 21-moddasiga ko`ra: "Suv obyektlari aholining ichimlik suvga bo`lgan ehtiyojlarini, maishiy davolash; kurort, sog`lomlashtirish, hordiq chiqarish va boshqa ehtiyojlarini, qishloq xo`jaligi, sanoat, energetika, transport, baliqchilik xo`jaligi hamda boshqa davlat yoki jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun qonunlarda ko`zda tutilgan talablar va shartlarga rioya qilingan holda foydalanishga beriladi. Oqindi suvlarni oqizish uchun suv obyektlaridan foydalanishga qonunlarchda ko`zda tutilgan hollarda hamda maxsus talablar va shartlarga rioya qilingan taqdirdagina yo`l qo`yilishi mumkin.

Suvdan umumiy va maxsus foydalanish turlarining ro`yxati suv xo`jaligi, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya nazorati, geologiya va mineral resurslar organlari tomonidan belgilab qo`yiladi.

Shuningdek, suv qonunchiligida "Suvdan birgalikda va tanho foydalanish" masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan "Suv obyektlaridan birgalikda yoki tanho foydalanish mumkin.

Birgalikda foydalaniladigan suv obyektlari jumlasiga tanho foydalanish uchun berilmagan suv obyektlari kiritilishi mumkin.

Tanho foydalaniladigan suv obyektlariga mahalliy hokimiyat organlari qarori asosida biron korxona, tashkilot va muassasaga butunlay yoki qisman berib qo'yilgan suv obyektlari kiradi" (23-modda).

Albatta suv qonunchiligida suvdan ekologik talablarga rioya qilib foydalanuvchilarning birlamchi va ikkilamchiligiga alohida e'tibor berilgan.

Tanho foydalanmoq uchun suv obyektlari berib qo'yilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar suvdan birlamchi foydalanuvchilar hisoblanib, ular suv xo'jaligi va tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishib, boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga suvdan ikkilamchi foydalanish uchun ruxsat berishga haqlidirlar.

Suvdan ikkilamchi foydalanish uchun berilgan ruxsatnomada suv obyekтини berish maqsadi va undan foydalanishning asosiy shartlari ko'rsatiladi.

Zarur hollarda suvdan ikkilamchi foydalanish shartlari, taraflarning o'zaro huquq va burchlari suvdan birlamchi va ikkilamchi foydalanuvchilar o'rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtirilgan.

Suvdan birlamchi foydalanuvchi suvdan ikkilamchi foydalanuvchining butun suv xo'jaligi faoliyati uchun javobgar bo'ladi.

Suvdan ikkilamchi foydalanuvchi, bashorati suvning tegishli ulushini suvdan birlamchi foydalanuvchi o'zlashtirib olgan yoki undan foydalangan taqdirda, unga nisbatan da'vo qo'zg'ashga va yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilishga haqlidir. ("Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi Qonun"ning 24 moddasi).

Albatta, suvdan foydalanishning qonunda belgilangan muddatlari ham mavjud. Suv obyektlari doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Muddat avvaldan belgilanmagan holda foydalanish - doimiy foydalanish deb e'tirof etiladi. Suvdan vaqtincha foydalanish muddati; qisqa va uzoq (3-20 yil) bo'lishi mumkin.

Suv obyektlaridan vaqtincha foydalanish muddatlari suvdan foydalanuvchi manfaatdor tomonlar iltimosnomasiga binoan, shu suv to'g'risida qaror chiqargan yoki undan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma bergan davlat organlari tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Demak, barcha suvdan foydalanuvchilarga qonun asosida yuqoridagi talablarga asosan suvdan foydalanish huquqi beriladi. Agarda, suvdan foydalanuvchilar suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish talab hamda qoidalariga zid harakatlar sodir etganlarida ularning suvdan foydalanishi huquqlari bekor qilinishi ham mumkin.

Jumladan, "suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning X-bobi, 36-39 moddalarida suvdan foydalanish huquqini bekor qilish bilan bog'liq bara masalalar ko'rsatilgan.

Qonunning 36-moddasida "Suvdan foydalanish huquqini" bekor qilish asoslari quyidagicha ko'rsatilgan.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqi:

- suvdan foydalanishga ehtiyoj qolmaganda yoki undan voz kechilganda;
- suvdan foydalanish muddati tugaganda;
- korxona, tashkilot, muassasa yoki dehqon xo'jaligi tugatilganda;
- suv xo'jaligi inshootlari boshqa suvdan foydalanuvchilarga berilganda;
- tanho foydalanilayotgan suv obyektlarini qaytarib olishga zarurat tutilganda bekor qilinadi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish qoidalari buzilgan yoki suv obyektidan belgilab qo'yilganidan boshqa maqsadda foydalanilgan, suv haqi to'lanmagan hollarda ham korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqi bekor qilinishi mumkin (ichimlik suvga bo'lgan ehtiyoj va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun suvdan foydalanish huquqi bundan mustasnodir).

Jami respublika bo'yicha 17 mingdan ortiq tabiiy suv oqimi mavjud. Amudaryo havzasida ular 9,9, Sirdaryo havzasida 4,9 va ushbu daryolar oralig'ida 2,9 mingta. Biroq ularning asosiy qismi uncha katta bo'lmagan kichik soylar – 10 km dan ortmagan uzunlikdagi suv oqimlaridir, bular ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo oralig'iga taalluqli, ular asosan, yil davomida quriydigan daryochalardir,

hatto 10 km dan uzunlikda bo'lgan suv oqimlarida ham har yili oqim bo'lavermaydi.

Hozirgi paytda respublikada, asosan irrigatsiya maqsadida 51ta suv ombori foydalaniladi. Ularning to'liq loyihaviy hajmi 18,8 km³, foydali hajmi – 14,8 km³ni tashkil qiladi. Eng yiriklari Tuyamuyun, CHorvoq, To'dako'l, Kattaqo'rg'on suv omborlaridir. O'zbekistonning eng yirik suv omborlari kompleks ishlatiladi, ular asosan irrigatsiya, energetika va sanoat maqsadlariga mo'ljallangan. Suv omborlaridan uzoq muddatlarda foydalanishi hamda ularning ishida ro'y bergan o'zgarishlar keskin loyqalanishga olib keldi.

Mahalliy daryolar yaylovlarida tabiiy qayir va delta ko'llari joylashgan. Tog'li ko'llar odatda qulash yoki muzlik-moren natijasida kelib chiqqan bo'lib, suv zaxirasi taxminan 50 km³. O'zbekistonda 500 dan sal ko'proq ko'l bo'lib, asosan, 1 km² dan kam maydonli kichik suv havzalari va 10 km²dan ortiq maydonli 32 ta ko'l mavjuddir.

XX asr ikkinchi yarmida mintaqa daryolaridan suv olinishining ortishi suv oqimlarida suv sathining pasayishiga, toshqinlar davrida suv toshishi maydonlarining kamayishiga, daryolar bilan gidravlik bog'liq bo'lgan ko'llar maydonlarini qisqarishiga, mavjud suv va suvoldi ekotizimlari maydonlarining umumiy qisqarishi va tanazzulga uchrashiga olib keldi. Daryo o'zani va deltalarining katta hududlarida gumid landshaftlarning arid landshaftlariga o'zgarishi ro'y berdi.

O'zbekiston hududida 95 ta erosti suvlari koni mavjud. Umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha chuchuk va sho'rlangan erosti suvlarining tabiiy resurslari 2007 yilda 75580,56 m³/sut (874,8 m³/s)ni tashkil qiladi. Bu minerallashuvi 1 g/l gacha, 1-5 g/l va 5 g/l dan ortiq bo'lgan erosti suvlaridir (30-rasmga q.).

CHuchuk erosti suv manbalarining eng ko'p miqdori Toshkent (7375,19 ming m³/sut), Samarqand (3547,58 ming m³/sut), Surxondaryo (3373,75 ming m³/sut), Namangan (3312,58 ming m³/sut), Andijon (3184,7 ming m³/sut) viloyatlarida uchraydi. Buxoro (64,8 ming m³/sut) va Navoiy (72,58 ming m³/sut – 0,84 m³/sut) viloyatlari chuchuk erosti suvlari bilan kam ta'minlangan.

Suv resurslarining ifloslanish manbalari

Suv resurslarining antropogen ifloslanishini quyidagi tarzda ajratish mumkin:

- qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasidagi ifloslanish;
- sanoat faoliyati natijasidagi ifloslanish;
- shahar va qishloq tumanlaridagi maishiy ifloslanish manbalari.

Agrokimyoviy moddalarni qo‘llash, bevosita tashlash yoki **sizot** suvlariga ta’sir qilish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi erlari, suv resurslarini ifloslantirish **xissasini** belgilaydi. Qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasidagi **ifloslanish** o‘simliklar, tuproq, suv va havo namunalarini pestitsid, azot va fosfatlarga tahlil qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

Atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan qishloq xo‘jaligi dalalaridan mineral o‘g‘itlarning va o‘simliklarni kimyoviy himoyalash vositalarining **sug‘orma** suvlar bilan chiqishi, shuningdek chorvachilik komplekslaridan ifloslangan oqavalarning erusti va **sizot** suvlariga tushishi alohida **xavf** uyg‘otadi.

Kollektor-drenaj suvlari bilan eng ko‘p ifloslanganlik kichik daryolar va Amudaryoning quyi qismlarida kuzatiladi.

Tanlama asosda o‘tkazilgan tadqiqotlar **tashlanadigan toksik moddalar umumiy miqdori bo‘yicha suvning ifloslanishiga Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi xo‘jaliklar eng katta hissa qo‘shishi ko‘rsatdi.**

Asosiy sanoat ifloslantiruvchilari **manbalari bo‘lib** quyidagilar hisoblanadi:

- kon-qazib olish va metallurgiya sanoati, metallarni **galvanik** qayta ishlash va boshqalar tashlanmalaridagi og‘ir metallar (toksinlar);
- ixtisoslashgan sanoat tarmoqlaridan (toksinlar va notoksinlar) tushadigan azot, sianid kabi va boshqa organik moddalar;
- notoksik organik moddalar (BPK, XPK), masalan, oziq-ovqat va engil sanoati tashlanmalari;
- har xil sanoat korxonalari turlari, jumladan, kimyo sanoati tashlanmalarining toksik organik qismlari, masalan, neft komponentlari, qorishmalar va hokazo.

Maishiy ifloslantiruvchilar (kanalizatsiyalanmagan aholi qismi) fekal va maishiy oqavalarni ariq va kollektor-drenaj tarmoqlari yoki o'ralarga tashlashlari sizot suvlari sifatiga ta'sir qiladi.

Kanalizatsiyalangan aholi qismi kommunal tozalash inshootlari orqali tozalangan oqava suvlarini suv ob'ektlari va qumlarga oqiziladi. Tozalash inshootlarining samarasiz ishlashi, ularning loyihaviy quvvatidan ortiq quvvat bilan ishlashi oqavalarning etarlicha tozalanmasligiga va atrof-muhit ifloslanishiga olib keladi.

Tog'lardagi shakllanish hududlaridan keladigan daryo suvlarining sifati (O'zbekiston Respublikasi hududida) juda yuqori – bu suvlar deyarli hech narsa bilan ifloslanmagan va ularning minerallashuvi juda kam. Biroq pastga yo'nalgani sari suvning sifati keskin yomonlashadi. Mintaqaning aksariyat daryolariga suvning o'rtacha oqimda 1-1,5 g/l, pastki oqimda 2 g/l va undan yuqori minerallashuvi xosdir.

Respublikaning aksariyat suv irmoqlaridagi suvning sifati qabul qilingan tasniflashga ko'ra o'rta me'yor ifloslangan va ifloslangan suvlar toifasiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona vodiysining kollektor-drenaj suvlari hamda Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ayrim suv oqimlari kuchli ifloslangan.

O'zbekiston Respublikasining barcha asosiy suv oqimlari bo'yicha so'nggi 20 yilda suv sifati yaxshilanishi dinamikasi kuzatilmoqda.

Amudayoning Tuyamuyun stvorida (stvor O'zbekistonning Turkmaniston bilan chegarasida daryoning ifloslanishini tavsiflab berishi mumkin) neft mahsulotlari, ammoniy azoti, minerallashuvi, mis, Alfa GXSG va Gamma GXSG bo'yicha konsentratsiyasi STCHKdan yuqoridir.

Havzaning asosiy daryosi - Amudaryo suvining kimyoviy tarkibi ko'p jihatdan, Turkmaniston va O'zbekiston hududlaridan daryoga tashlanadigan qishloq xo'jalik oqovalari bilan ifloslanish ta'siri ostida shakllanadi.

Surxondaryo daryosi suvlari qisman Tojikiston hududida shakllanadi. Daryo suvining kimyoviy tarkibi Denov, Termiz shaharlari va SHo'rchi shahar poselkasi

sanoat va kommunal ob'ektlaridan chiqarib tashlanadigan oqova suvlar va qishloq xo'jaligi oqovalariga bog'liq. Daryo O'zbekiston hududida Amudaryoga quyiladi. Surxondaryo suvining sifati SII ko'rsatkichi bo'yicha, daryoning boshidan quyi oqimigacha II-toza suvlar toifasidan III- o'rta me'yor ifloslangan suvlar toifasigacha o'zgaradi, bu esa suvning 1996 yildagi sifatiga to'g'ri keladi. 2000-2001 yillarda Termiz shahri stvorida daryodagi suv sifati II toifa – toza suvlar darajasiga mansub bo'lgan.

Qashqadaryo havzasida 3 mingdan ortiq suv oqimi mavjud, ulardan atigi 33 daryoning uzunligi 20 km dan ortiq. Qashqadaryo va uning irmoqlari deyarli to'liq sug'orishga sarflanadi. Havzaning erusti suv resurslari 42,4 m³/s ni tashkil qiladi. Havzada shakllanadigan suv resurslari etmaydi va Qashqadaryo viloyatiga Qarshi magistral kanali (QMK) bo'yicha Amudaryo va Zarafshon daryolaridan suv beriladi va Tolimarjon suv ombori orqali boshqariladi. Iste'mol qilinadigan suvning 80% Havzalaroro suv oqimini tashlashiga to'g'ri keladi.

Tog'li hududlardan keladigan erusti suvlarining sifati asosan qoniqarli. Daryolar pastki uchastkalari gidrologik tartibi xo'jalik faoliyati natijasida o'zgardi.

Qashqadaryo suvining sifati boshlanishidan pastga qarab yomonlashib boradi. CHimqo'rg'on stvoridagi suvlar ifloslanish indeksining yillik ko'rsatkichi 1997 yildan boshlab II toifa toza suvlarga muvofiq, 2000 va 2006 yillar bundan mustasno, chunki bu yillarda suv sifati III toifa o'rtacha ifloslangan suvlarga mos bo'lgan.

Zarafshon daryosi ko'proq transchegaraviy ta'sir ostida bo'ladi. Daryo suvlari shakllanish hududida daryo suvini toksik metallar, surma, simob moddalari bilan ifloslantiruvchi Tojikiston Respublikasi tog'-kon kombinati ob'ektlari joylashgan. 2002 yildan boshlab maxsus ingredientlar (surma, simob, kadmiy, stronsiy va boshq.) ustidan monitoring tashkil qilingan. O'zbekiston hududida Samarqand, Kattaqo'rg'on, Navoiy shaharlari sanoat korxonalari va qishloq xo'jaliklari oqava suvlari daryoga tashlanadi.

Daryo havzasida erusti suv oqimlariga antropogen ta'sirni pasaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Suv tarkibidagi zararli moddalar miqdori

muntazam kamayib bormoqda. 2000 yilgacha Rovatxo‘ja to‘g‘onidagi Zarafshon daryosi suvining ifloslanganlik indeksi 0,63-2,07 oralig‘ida va o‘rtacha ifloslangan suvlarga muvofiq edi, 2000 yildan keyin suv sifatining yaxshilanishi va toza suvlar toifasiga o‘tish kuzatilmoqda.

Navoiy shahridan pastdagi daryo suvining sifati ham suvlar ifloslanganlik indeksi bo‘yicha o‘zgardi, IV toifadan 2001, 2002, 2003 va 2005 yillarda III toifa o‘rtacha ifloslangan suvlarga, 2004 yilda esa hatto II toifa toza suvlar toifasiga etdi.

Sirdaryo daryosi havzasi ko‘plab daryolar suvlaridan hosil bo‘ladi, ulardan asosiylari bo‘lib Sirdaryo, Norin, Qoradaryo, CHirchiq, Oxangaron daryolari hisoblanadi.

CHirchiq va Oxangaron daryolarigina transchegaraviy suv ob‘ekti bo‘lib hisoblanmaydi. Qolgan boshqa daryolar suvlarining barchasi (Farg‘ona vodiysi kichik daryolari, CHirchiq daryosiga quyiladigan irmoqlar bilan birga) qo‘shni davlatlar hududlarida shakllanadi. Sirdaryo daryosi ikki qismda O‘zbekiston hududidan oqib o‘tadi: yuqori qismi - Norin va Qoradaryolarning qo‘shilishida va o‘rta oqimdagi qismi - Oxangaron va CHirchiq daryolari quyilishi oralig‘ida.

Sirdaryo daryosi suvi sifati SII bo‘yicha barcha stvorlarda III- o‘rta me‘yor ifloslangan suvlar toifasiga to‘g‘ri keladi. Bekobod shahridan yuqoridagi stvor bo‘yicha 2000 va 2002 yillarda II- toza suvlar toifasidan, 2001, 2003 va 2004 yillarda III- o‘rta me‘yor ifloslangan suvlar toifasiga o‘tgan. Sirdaryo daryosiga Tojikistondan olingan suvlar tarkibidagi Alfa GXSG va Gamma GXSG tarkiblari O‘zbekiston hududiga o‘tganida kamayishi kuzatiladi.

Qoradaryo Sirdaryo daryosini tashkil etuvchilardan biri bo‘lib, oxirgi uch yil davomida suv sifati O‘zbekiston hududiga SII bo‘yicha II- toza suvlar toifasida oqib keldi. Respublika hududida Andijon, Asaka, Xonobod shaharlari oqova suvlari tashlamalari hamda kollektor-zovur suvlari daryo suvi sifatini yomonlashtiradi va u SII III- o‘rta me‘yor ifloslangan suvlar toifasiga mos bo‘ladi.

Farg‘ona vodiysining kichik suv oqimlarining deyarli barchasi O‘zbekiston hududiga SII bo‘yicha II- toza suvlar toifasi sifati bilan oqib keladi va sug‘orishga olinadi.

Ohangaron daryosi suvining sifati tog‘lardan tushishda 1994 yildan beri II-toza suvlar toifasiga kiradi, faqat 2003 yilda o‘rta me‘yor ifloslangan suvlargacha yomonlashdi. Ohangaron daryosi boshlanishidagi suv ifloslanishi indeksi kuzatilgan davr mobaynida III- o‘rta me‘yor ifloslangan suvlar toifasi doirasida saqlandi.

CHirchiq daryosi suvining ifloslanish indeksi:

- 1995 yildan beri G‘azalkent shahri oldida – II-toza suvlar toifasi,
- CHirchiq shahri chegarasida 1994 yilgacha – III va IV toifaga (o‘rta me‘yor ifloslangan va ifloslangan suvlar), 1994 yildan keyin esa II toifaga va muayyan yillarda III toifaga,
- daryo etagida qator kuzatuvlar davomida – III toifaga xos bo‘lgan.

Yirik sanoat korxonalari joylashgan erlarda oqim suvi sifatining lokal yomonlashishi kuzatiladi. 1988 yilda Toshkent va Farg‘ona sanoat tumanlaridagi eroosti suvlari eng ifloslangan hisoblanardi.

Ko‘p yillar davomida Toshkent viloyatida CHirchiq daryosi o‘rtacha oqimida suv olinishida eroosti suvlari ifloslanishining yuqori darajasi qayd qilingan (3-6,3 STCHK). «Maksam CHirchiq» OAJ, O‘zbek qiyin eriydigan issiqqa chidamli metallar kombinati (O‘QEICHMK), noruda materiallari karerlari va boshqalar ifloslanish ob‘ektlari bo‘lgan.

Ohangaron daryosi havzasida eroosti suvlari minerallashuvi (1,2-1,6 STCHK), qattiqligi (1,2-1,7 STCHK), tarkibidagi kadmiy (2 STCHK) va selen (2 STCHK) miqdori bo‘yicha belgilangan salbiy ta’sir chegarasidan ortishi kuzatilgan.

Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida sizot suvlari usti 3 mm gacha qalinlikda neft qatlami bilan qoplangan, neft mahsulotlari tarqalishi maydoni qariyb 10 km²ni tashkil qilgan, bu ichimlik va texnik suv bilan ta’minlash quduqlariga jiddiy xavf uyg‘otardi, ularning bir qismi hatto ishdan ham chiqqan. Yangi Qo‘qon

kimyo zavodi, Farg'ona furan qorishmalari zavodi erlarida ham erosti suvlarining ifloslanishi kuzatilgan.

Zarafshon daryosi vodiysida erosti suvlari ifloslanishi minerallashuvi, umumiy qattiqligi, sulfatlar bo'yicha 10 dan 100 baravargacha **ortgan**.

«Gidroingeo instituti» DK kuzatuvlarining ma'lumotlariga qaraganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida chuchuk erosti suvlari (1 g/l gacha) umuman qurib qoldi. Qoraqalpog'iston butun hududi bo'yicha minerallashuv, umumiy qattiqligi, sulfatlar va xloridlar bo'yicha ichimlik suvining sifati yomonlashishi **qayd qilinmoqda**.

Erostri suvlarining ifloslanishi Past Amudaryo (O'ng sohili) va Qoraqalpog'iston past Amudaryo (CHap sohili) manbalari bo'yicha xo'jalik-iste'mol maqsadidagi guruhli suv olinishiga ko'ra o'rganildi. Bu erda ko'plab joylarda minerallashuvi 1,08-2,1 g/l va umumiy qattiqligi 7,6-21,5 mg-ekv/l bo'lgan erosti suvlari tarqalgan, ulardagi sulfatlar tarkibi 510-660 mg/l, xloridlar tarkibi 358-710 mg/l ni tashkil qildi.

Andijon viloyatida erosti suvlarining ifloslanishi **6 ta hosil bo'ladigan joylar** bo'yicha o'rganildi.

Andijon-SHahrixon **suv hosil qilish manbalarida**, asosan, unig o'rtacha va shimoli-sharqiy qismida (Andijon, SHahrixon, Asaka shaharlarida) erosti suvlari minerallashuvi, umumiy qattiqligi va neft mahsulotlari tarkibi 1-1,2 STCHK oralig'ida. Manbaning janubi-sharqiy qismi Asaka adirlari bo'ylab erosti suvlari minerallashuvi, qattiqligi va sulfatlar tarkibi 1,1-1,3 STCHK ni tashkil qildi.

Osh-**Aravon suv hosil qilish manbalarida** «Marhamat» uchastkasi chegarasida erosti suvlarining minerallashuvi - 1,2-2,5 mg/l va umumiy qattiqligi - 21,9-33,5 mg-ekv/l bo'lib, vaziyat chuchuk erosti suvlariga nisbatan qoniqarsizligicha qolmoqda, «Oxchi» suv olinishi uchastkasi bundan mustasno. **Suv hosil bo'lish manbalarining** o'rta qismi (Aravansoy daryosining chiqish konusida) erosti suvlarida minerallashuv va qattqlik 1,8-3,1; 12,9-33,2 mg-ekv/l oralig'ida saqlanmoqda. **Suv hosil bo'lish manbalarining** sharqiy qismi erosti suvlari yaxshi sifati bilan ajralib turadi va O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi» talablariga javob

beradi, minerallashuvi, umumiy qattiqligi va sulfatlar bo'yicha 1,5 STCHKgacha nuqtali oshishlar kuzatiladi, xolos.

Norin konida 25 m gacha chuqurlikdagi **sizot** suvlari ifloslangan, ular minerallashuvi va qattiqligi 1,5 STCHKgacha, shuningdek neft mahsulotlari va fenollar tarkibi yuqoriligi ta'kidlanadi, biroq ekspluatatsiya gorizontlari (80-300 m) katta suglink qatlamlari bilan himoyalangan va erosti suvi O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi» talablariga javob beradi.

Buxoro viloyatida erosti suvlari minerallashuvi (1,7-3,2 g/l), umumiy qattiqligi (11,2-23,5 mg/l) va sulfatlar (625-1619 mg/l) bo'yicha O'zDSt 950:2000ga muvofiq kelmaydi. Bu ko'rsatkichlar, asosan, Buxoro va Qorako'l manbalari (Buxoro, SHofirkon, **Gijduvon**, Romitan va Jondor tumanlari) bo'yicha tarqalgan.

Jizzax tumanida deyarli barcha tekshirilgan suv olinishlarida erosti suvlari qattiqligi O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi»ga mos emas.

Qashqadaryo viloyatida Kitob-SHahrisabz **suv hosil bo'lish manbalari** bo'yicha erosti suvlari umumiy qattiqligi ortganligi kuzatildi – 9-12 mg-ekv/l; O'ngsohil **manbalari** bo'yicha – 10-12 mg-ekv/l; CHap sohil **manbalari** bo'yicha erosti suvlari minerallashuvi 2,5-3 g/lni, umumiy qattiqligi – 35-44 mg-ekv/l; o'arbiy Qashqadaryo bo'yicha 18-50 mg-ekv/l; Guzar – 35-40 mg-ekv/l va Langar bo'yicha 10-11 mg-ekv/lni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida 2006 yil uchun sug'oriladigan hududlar suv olinishlarida erosti suvlarining sifati oshdi va faqat ba'zi suv olish uchastkalarida yomonlashdi. Minerallashuv – 1-1,2 g/l va qattiqlik – 11-12 mg-ekv/l bo'yicha eng kichik ko'rsatkichlar Xatirchi va Zarmiton suv olinishlarida, minerallashuv – 1,2-1,4 g/l va qattiqlik – 14-17 mg-ekv/l bo'yicha eng katta ko'rsatkichlar esa Qiziltepa suv olinishida kuzatildi. Sug'oriladigan zonada erosti suvlari ifloslanishi, asosan, kollektor-drenaj suvlari hamda magistral kanallari va Zarafshon daryosiga tashlanadigan sanoat-xo'jalik oqavalari (taxminan 5-6 m³/s) hisobiga ro'y beradi. Zarafshon d. o'rta qismidagi vaziyat yana Navoiy sanoat zonasi korxonalari (GMZ-1, «Navoiyazot» ICHB, Navoiy elektr-kimyó zavodi va boshqalar) ta'sirida

yomonlashadi. Mazkur korxonalar hududlarida erosti suvlarida sulfatlar, minerallashuv, umumiy **qattikligi** yuqori tarkibi kuzatiladi. CHo'l zonasida joylashgan suv olinish uchastkalarida erosti suvlarining sifati nisbatan yaxshi: minerallashuv – 0,7-1,2 g/l, qattqlik – 3-9 mg/l, nitratlar tarkibi – 24-37 mg/l, NH₄ – 0,7-1 mg/l. CHo'l zonalarida erosti suvlarining ifloslanish manbalari Uchquduq tumani SHimoliy ruda boshqarmasi**ning** (GMZ-2, GMZ-3 va RU-5 ishqorli tozalash uchastkasi) sanoat oqavalari sanaladi.

Namangan viloyatida erosti suvlari ifloslanishi faqat Olmos-Varziq **manbalarining** shimoliy qismida (SHayan-Baymak chuqurligi – suv minerallashuvi 1,5 g/lgacha, umumiy qattqligi 8,4-10,5 mg-ekv/l, chekka qismida neft mahsulotlari 1,2 STCHKgacha oraliqda), Kosonsoy **manbalarining** janubiy va janubi-sharqiy qismlarida (suv minerallashuvi 1,2 g/lgacha, umumiy qattqligi 8,9-11,5 mg-ekv/l, g'arbiy qismida – neft mahsulotlari 1-2 STCHKgacha), Iskovat-Pishkaran (CHortoq va Namangan daryosi pastlari – umumiy qattqligi 7,5-14,2 mg-ekv/l), Namangan (Namangan va CHortoq shaharlari atrofida – suv minerallashuvi 1,52,1 g/l gacha, umumiy qattqligi 9,4-25,1 mg-ekv/l) manbalarida aniqlandi.

Samarqand viloyatida Zarafshon **manbalari** bo'yicha (Oqdaryo vodiysinig markaziy-shimoliy qismi) erosti suvlariga minerallashuvi va umumiy qattqligi bo'yicha yuqori **ko'rsatkichlarga hosdir**. SHimoliy tog'oldi manbalari bo'yicha erosti suvi minerallashuvi tog'dan uzoqlashgani sari ortib boradi va 1,8 g/lgacha, umumiy qattqligi 9,5-13,2 mg-ekv/l gachani tashkil qiladi. **g'arbiy** Qashqadaryo **manbalari** erosti suvlari 1,2-1,4 g/l minerallashuvga va 9,2-11 mg-ekv/l umumiy qattqlikka ega, ftor tarkibi 0,8-1,19 mg/l.

Surxondaryo viloyatida sug'oriladigan maydonlardan kollektor-drenaj tarmog'i, agrosanoat kompleksi ishlab chiqarish korxonalar**ining** sanoat oqavalari va boshqalarning ifloslangan suvlari tashlanadigan erusti suv oqavalari va havzalari erosti suvlari ifloslanishining manbalari hisoblanadi.

SHimoliy Surxondaryo **manbalari** bo'yicha, asosan, alohida lokal uchastkalarda markaziy va janubiy qismlarida erosti suvlari minerallashuvi 1,6

g/lga, umumiy qattiqligi – 18 mg-ekv/l, nitratlar – 47 mg/l, fenollar – 0,002-0,003 mg/l ga etadi.

Janubiy Surxondaryo **manbalari** bo'yicha shimoliy va janubiy qismlaridagi lokal uchastkalar bo'yicha erosti suvlari minerallashuvi 1,4-1,8 g/lni, umumiy qattiqligi 15,3-25 mg-ekv/l ni tashkil qiladi.

SHerobod erosti suvlari **manbalari** O'zDSt 950:2000ga muvofiq kelmaydi, va ichimlik suv ta'minoti uchun yaroqsiz. erosti suvlari minerallashuvi 2,4 g/l, umumiy qattiqligi 12-16,5 mg-ekv/l, nitratlar – 47 mg/l, ammoniy – 3,12-6 mg/lga etadi. «YAngiobod», «SHerobod», «Muzrobod» va «Angor» suv olinishlari bo'yicha minerallashuv 1,5-2,36 g/l, umumiy qattiqlik – 15,7-21 mg-ekv/l qayd qilindi, sulfatlar 475-663 mg/l, xloridlar 425 mg/l miqdorini tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida Do'stlik, Xovos manbalari va YUqori pliotsen **manbalari** g'arbiy qismi bo'yicha erosti suvlari minerallashuvi 1,4-1,8 g/l, umumiy qattiqligi 10,8-17,5 mg-ekv/l, sulfatlar tarkibi 570-980 mg/l ni tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha erosti suvlari CHirchiq va Ohangaron daryolari **xududlarida** (CHirchiq, Toshkent, YAngiyo'l, Angren, Olmaliq shaharlarida) jamlangan sanoat ob'ektlari, shuningdek ikkala daryo oralig'idagi **xududlarining** pastki qismida joylashgan ko'p sonli agrosanoat, kommunal va boshqa ob'ektlar ta'sirida ifloslanadi.

CHirchiq **manbalari** chegarasida erosti suvlarining neft mahsulotlari bilan ifloslanishi lokal uchastkalarda ko'rinadi, ifloslanish darajasi 1,5 dan 1,7 STCHKgacha o'zgardi (Qo'yliq, Paxtachi neft bazalari, temir yo'l uchastkalari, YOMM alohida omborlari, avtoyuvish joylari, YOQSH, CHkalov nomli Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, TTZ, Toshmetropoliten DAJlari va boshqalar).

Ohangaron **manbalari** bo'yicha «Ko'mir» AJ qoldiq tuproqlari va chiqindilarni saqlash maydonlari joylashgan Teshik-Toshdan Qondir **stvorigacha** bo'lgan uchastkada erosti suvlari minerallashuvi 1,4 g/lga, umumiy qattiqligi 15,6 mg-ekv/lga, sulfatlar miqdori 695 mg/lga etadi.

Telov qishlog'idan Olmaliq shahrigacha bo'lgan uchastkada erosti suvlari minerallashuvi 1,3-1,5 g/lga, umumiy qattiqligi 12,6-15 mg-ekv/lga (menej davri) etdi. Erosti suvlarining neft mahsulotlari bilan ifloslanishi ko'p emas va 0,006-0,05 mg/l oralig'ida, fenollar miqdori kam (lokal uchastkalarda) uchraydi va 0,0004-0,0025 mg/lni tashkil qildi.

Pskent **manbalari** bo'yicha Pskent sh. hududida **sizot** suvlari minerallashuvi 1,2-1,3 g/l, umumiy qattiqligi – 12,3-18 mg-ekv/l, sulfatlar – 765 mg/l, neft mahsulotlari 0,12 mg/lni tashkil qildi. **Manbalarning** markaziy qismida foydalanish gorizontlarida erosti suvlari sifati yaxshi bo'lib, O'DSt 950:2000ga muvofiq keladi.

Ko'korol manbalari bo'yicha erosti suvlari, asosan, 1-1,5 g/l dan 1,5-3,5 g/lgacha va undan yuqori minerallashuvga ega. Hududnig uchdan bir qismiga 1 g/lgacha minerallashuv xosdir. Erosti suvlari ifloslanishining asosiy manbasi shimoli-sharqiy qismda joylashgan OKMK birlashgan chiqindilarni saqlash maydoni hisoblanadi. Xlor va ammoniy bo'yicha ifloslanish vaqtinchalik tusga ega. **Manbalarning** janubiy va janubi-sharqiy qismida erosti suvlari minerallashuvi 1,6-1,8 g/l, sulfatlar – 476 mg/l, nitratlar – 15-25 mg/l. Bu erda ifloslanish erlarni sug'orish bilan bog'liq. Foydalanish gorizonti erosti suvlarining sifati O'DSt 950:2000ga muvofiq keladi.

Dalvarzin manbalari erosti suvlari kamsho'rli, minerallashuvi 1,1-1,5 dan 3 g/l gacha, umumiy qattiqligi 10,6-21,95 mg/l. Bu erlarni sug'orish uchun Sirdaryoning ustki sho'r suvlari ishlatilishi va Tojikiston Respublikasi hududidan sug'orish va drenaj suvlari tashlanishi bilan bog'liq.

Bekobod shahri suv olinishlari bo'yicha erosti suvlari minerallashuvi 1,02-1,82 g/l, umumiy qattiqligi 11,8-19,45 mg-ekv/l, sulfatlar – 680-960 mg/lni tashkil qildi.

Farg'ona viloyati bo'yicha erosti suvlarining mintaqaviy va lokal ifloslanishining asosiy omili erlarni sug'orish hisoblanadi. **Isfara manbalari** bo'yicha Isfara **daryosini** chiqishi konusi boshlang'ich qismi asosiy foydalaniladigan suv tashishi gorizontlari erosti suvlari ifloslanishining oreoli

erosti suvlari minerallashuvi – 1,2 g/l, umumiy qattiqligining – 13 mg-ekv/l eng yuqori ko'rsatkichiga ega («YUqori» suv olinishi). CHiqish konusi sharqiy sektorining yuqori qismida («Rapkan» suv olinishi uchastkasida) erosti suvlari minerallashuvi 1,4 g/l, umumiy qattiqligi 14 mg-ekv/l. Kesma yuqori (50 m gacha) qatlamidan tashqari **manbalarning** qolgan maydonida O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi»ga mos erosti suvlari tarqalgan.

Sox **manbalari** bo'yicha chiqish konusi g'arbiy sektorida («YAypan» uchastkasida) erosti suvlari ifloslanishining asosiy omili Achisuv daryosi erusti oqimi hisoblanadi. Erosti suvlari eng yuqori minerallashuv ko'rsatkichi 1,5-3 g/l, umumiy qattiqlik ko'rsatkichi – 20-35,4 mg-ekv/lni tashkil qiladi. **Sox daryosidan.** chiqish konusi sharqiy sektorida (Bog'dod uchastkasi) erosti suvlariga yuqori minerallashuv (2 g/lgacha) va umumiy qattiqlik (29,45 mg-ekv/lgacha) xosdir, bu asosan chiqish konusining adir massivlari, tog'oldi **tekisliklari** va boshlang'ich qismlarini o'zlashtirish va sug'orish bilan bog'liq. Ifloslanish oreoli umumiy maydoni 252 km². **manbalarning** qolgan barcha maydonida foydalanish suv tashish gorizontlarining erosti suvlari O'zDSt 950:2000ga mos keladi.

Oltiariq-Beshalish **manbalari** bo'yicha («Quva» uchastkasi) asosan Mirzacho'l qismi va Toshkent suv tashish komplekslari yuqori qismi kuzatuvlar bilan qamrab olingan, erosti suvlari eng yuqori minerallashuvi – 1,4 g/l, umumiy qattiqligi – 14,25 mg-ekv, sulfatlar – 600 mg/l. Aniqlangan ifloslanish oreoli maydoni 72,8 km²ni tashkil qiladi.

«Toshloq» uchastkasida erosti suvlari minerallashuvining eng yuqori ko'rsatkichi 1,7 g/l, umumiy qattiqlikniki – 20,05 mg-ekv/l, sulfatlarniki – 1000 mg/lni tashkil qildi. Ifloslanish oreoli maydoni 77,6 km². Neft mahsulotlari bilan ifloslanish to'liq yo'qotildi.

YOrmozor **manbalari** erosti suvlari qishloq xo'jaligi va sanoat ifloslanishiga berilgan va hamma erda umumiy qattiqlikning, g'arbiy qismida esa minerallashuv va sulfatlarning ortishi bilan bilan tavsiflanadi. Minerallashuv va umumiy qattiqlikning eng yuqori ko'rsatkichlari tegishli ravishda 1,3 g/l va 15 mg-ekv/lni,

sulfatlarniki – 700 mg/l ni tashkil qildi. Umuman olganda **manbalar** bo'yicha gidrokimyoviy vaziyat murakkabligicha qolmoqda.

CHimyon-Ouval erosti suvlari **hosil bo'lish manbalari** Farg'ona va Marg'ilonning eng yirik va istiqbolli xo'jalik iste'mol suv ta'minoti manbai sanaladi. Erosti suvlari ifloslanishi darajasi ortiqcha umumiy qattqlik, ba'zi joylarda esa minerallashuv va sulfatlar bilan tavsiflanadi. Eng yuqori minerallashuvning ko'rsatkichi 1,1 g/l, umumiy qattqlik ko'rsatkichi – 13,7 mg-ekv/l ni tashkil etadi.

Xorazm viloyatida hozirgi paytda chuchuk erosti suvlari (1 g/l gacha) umuman qurigan. Butun viloyat hududi bo'yicha ichimlik suvining minerallashuvi, umumiy qattqligi, sulfatlar va xloridlar bo'yicha sifati yomonlashishi kuzatilmoqda. **Manbalar** bo'yicha erosti suvlari minerallashuvi 1-2,5 g/l, umumiy qattqligi 12-20 mg-ekv/l ni tashkil qiladi. Erosti suvlarining nisbatan qoniqarli sifati alohida kanal bo'yi linzalarda kuzatiladi, bu erda minerallashuv 1,5 g/l gacha, umumiy qattqlik – 12-15 mg-ekv/l.

Ko'p yillik kesmada erosti suvlarida azot qorishmalarining tarkibi kamayishi kuzatilmoqda.

Umumiy suv ta'minoti va suvni chiqarish. Ifloslangan oqava suvlar

Eng ko'p suv hajmlari – 85% qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga ishlatiladi, ya'ni qishloq xo'jaligi asosiy suv iste'molchisi hisoblanadi. Suvning aksariyat (80-83%) qismi vegetatsiya davrida sarflanadi. Vegetatsiya **bo'lmagan** davrda suvdan kuzgi ekinlarni sug'orish, zaxirali va nam saqlash sug'oruvlari va sho'rlangan erlarni yuvish uchun foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish darajasi irrigatsiya tizimlarida foydali ish ko'effitsienti (FIK) bilan baholanadi, u hozirgi paytda quyidagi ko'rsatkichda barqarorlashdi: magistral va xo'jaliklararo tarmoqlar bo'yicha – 0,86, ichki xo'jalik tarmog'i bo'yicha – 0,77, bu xo'jaliklararo tarmoqlarni qayta ta'mirlash va ichki xo'jalik tarmoqlarini qayta o'rnatish ishlarining sur'atlaridan dalolat beradi.

Texnik holati bo'yicha sug'orish tarmoqlarining 68,1% nosoz, 50,2% qayta tiklanishga va 17,9% ta'mirga muhtoj.

Sanoat, kommunal va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga 15% suv ishlatiladi. 2006 yil uchun iqtisodiyot tarmoqlarining (issiqlik energetikasidan tashqari) Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suvdan foydalanishi.

Respublikalararo suv taqsimoti tamoyillariga muvofiq suv olinishi hisob-kitob **limitlarining** belgilangan ulushlari Markaziy Osiyo suveren davlatlari tomonidan haligacha tan olinadi, bu 1992 yil 18 fevralda Almati shahrida mintaqaning barcha davlatlarini besh vazirlari tomonidan imzolangan «Davlatlararo manbalar suv resurslarini hamkorlikda boshqarish, ishlatish va muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bitim» bilan **tasdiqlanagan**. Mintaqa davlatlari suv taqsimoti ulushlarini saqlagan holda hozirgi vaqtda haqiqatda mavjud bo'lgan suv resurslari hajmlarining absolyut kattaligini aniqlashtirish zarurligini tan olishmoqda. O'zbekiston foydalanishi mumkin bo'lgan mavjud suv resurslari hajmining kattaligi hozirgi jarayonda aniqlangan bo'lib, 67 km³ni, xususan, daryo oqimidan 55,1 km³, eroziya suvlaridan 7,8 km³, qaytish suvlaridan 4,1 km³ni tashkil etadi.

Hisob-kitob qilingan suv resurslari hajmidan kelib chiqib, respublikada iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha quyidagi **limitlar** mavjud.

Respublikaning erusti suv oqimlari va suv havzalariga 500 dan ortiq suvdan foydalanuvchi ob'ektlar (kollektor-drenaj suvlaridan tashqari) oqavalarini tashlaydi.

Suv ob'ektlariga sanoatdan oqava suvlar bilan birga og'ir metallar, ftoridlar, fenollar, kaprolaktam, atseton, neft mahsulotlari hamda qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft kimyosi sanoati, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalari uchun xos bo'lgan boshqa zararli moddalar ham tushgan. Suv manbalarining gidrokimyoviy va gidrobiologik tartibiga issiqlik energetikasining yuqori minerallashtirilgan oqavallari jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashlangan sanoat oqava suvlarining 60 foizdan ortig'i tozalanish talab qilinmaydigan me'yorda toza oqavallarga kiradi. Bu elektr stansiyalarini

sovutishdan, baliq hovuzlaridan tushgan oqavalar, korxonalar hududlarida **sizot** suvlari darajasini pasaytirish uchun tortiladigan drenaj suvlari va boshqalardir. Qolgan 40% tozalanishsiz va tozalanganidan keyin tashlanadigan ifloslangan suvlar toifasiga kiradi.

Suv sifatiga (tashlanadigan moddalar zararliligini hisobga olmagan holda) ta'sir etishda sanoat korxonalarining ulushi 20 foizdan kamini tashkil qiladi, lekin ular mahalliy ifloslanish o'choqlarini vujudga keltiradi hamda suv havzalarida to'planish xususiyatiga ega bo'lgan og'ir metallar va boshqa zaharli moddalarning asosiy manbalari hisoblanadi. Suvni ifloslantiruvchilar umumiy og'irligining 80 foizdan ortig'ini Toshkent, Farg'ona, Navoiy va Samarqand viloyatlari sanoati tashlaydi.

1990 yildan boshlab ifloslangan sanoat oqovalarining qisqarib borish moyilligi kuzatilmoqda, buning asosiy sabablari - ba'zi ishlab chiqarish korxonalarining to'la quvvat bilan ishlamayotganligi hamda tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining bajarilganligida. 2007 yilda noirrigatsiya sektoridan ifloslangan oqava suvlari tashlanishi 119 mln. m³/yilni tashkil qildi, barcha oqavalar tozalanish qurilmalarida etarlicha tozalanmagan oqavalar toifasiga kiritildi. Ifloslanishning asosiy manbalari: Samarqand viloyatida – Boynazar va Farhod tozalash qurilmalari, Toshkent viloyatida – CHirchiqdagi «Maksam CHirchiq» OAJ, YAngiyo'l sh. va YAngiyo'ldagi «Biokimyo» AJ tozalash qurilmalari hisoblanadi.

Tozalanishsiz suv ob'ektlariga oqava suvlarini tashlash umuman yo'qotildi. Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan erusti suv oqimlariga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalar ulushi 50-rasmda ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jaligi hududlari, chorvachilik komplekslaridan kelayotgan oqava suvlar erusti va erosti suvlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Avval kollektor-drenaj suvlari melioratsiya nuqtai nazaridan, erlar melioratsiya holatini yaxshilash natijasi sifatida olinardi. Biroq bu suvlar daryo va suv havzalariga tushganida suvning minerallashuvini oshiribgina qolmay, ularni zaharli kimyoviy moddalar va o'g'itlar qoldiqlari bilan ham ifloslantiradi. YAngi erlarni jadal o'zlashtirish, kollektor-

drenaj suvlari va sug'orish dalalaridan tashlanma suvlarning qo'shimcha tashlanishi, sanoat korxonalaridan havzalarga oqavalar tashlanishi oqibatida er usti va ular bilan bog'liq er osti suvlar (bir necha baravar) minerallashuviga olib keldi.

Hozirgi vaqtda mineral o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalardan foydalanishni qisqartirish, organik o'g'itlarni joriy qilish ularning kollektor-drenaj suvlari va tegishli ravishda suv ob'ektlari tarkibidagi miqdorini kamaytirdi.

SHahar kommunal xo'jaligidan oqava suvlar tushishi hajmlari kollektor-drenaj suvlaridan ancha kam. Ular asosan mahalliy ahamiyatga ega bo'lib, Toshkent va Samarqand viloyatlarida aniq ko'zga tashlanadi, mazkur viloyatlar O'zbekiston bo'yicha umumiy tashlanmalarning 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

2-BOB.

EKSPERIMENTAL QISM

2-BOB. EKSPERIMENTAL QISM

2.1. Tabiiy va oqova suvlar tarkibidagi iflosliklarni tahlil qilish

Oqova suv tarkibidagi muallaq zarrachalar miqdorini gravimetrik usulda aniqlash

Suv tarkibidagi muallaq zarrachalar miqdorini aniqlash gravimetrik usul bilan amalga oshiriladi. Taxlil kilinishi kerak bo'lgan suv namunasi qog'oz filtr orkali filtrlab olinadi, so'ng qog'oz filtr quritish shkafida $t = 105^{\circ}\text{S}$ da o'zgarmas massagacha quritiladi. Quritilgan filtr laboratoriya tarozisida tortiladi. Namunadagi muallaq zarrachalar miqdori cho'kma bilan quritilgan filtr massasi bilan odsivdan tortib olingan toza filtr massasi orasidagi farq orqali topiladi. O'lchashlarni amalga oshirishdan oldin filtrlarni tayyorlab olish kerak. Buning uchun filtr 1 soat davomida quritish shkafida $t = 105^{\circ}\text{S}$, quritiladi. Quritilgan filtr byuksga solib laboratoriya tarozisida tortiladi. Xuddi shu tarozida byuks ham tortiladi.

Tahlil uchun mo'ljallangan suv namunasidan muallaq zarrachalarning mavjudligiga qarab $V=100 - 1000$ ml olinadi. Namunani oldindan tayyorlab qo'yilgan filtr orqali o'tkaziladi, filtrlab bo'lgach cho'kmali filtr byuksga o'tkaziladi va quritiladi. Eksikatorida sovutilgach byuks filtr bilan tortib olinadi.

Muallaq zarrachalar miqdori (mg/ml) kuyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{(M_1 - M_2) \cdot 1000}{V}$$

bunda:

M_1 - cho'kmali filtr bilan kuritilgay byuks massasi, mg

M_2 - toza quritilgan filtr bilan byuks massasi, mg;

V - analiz uchun olingan namuna hajmi, ml.

Mazkur metodikani tekshirish vaqtida oqova suv tarkibidagi muallaq zarrachalar miqdorini o'lchab, quyidagi konsentratsiya xatoliklari ko'rsatkichi aniqlandi:

Suvning rN ko'rsatkichini potentsiometrik usul bilan aniqlash

O'lchash uchun rN-metr yacheykasiga tekshiriyotgan eritma (50–100 ml vodoprovod suvi) quyiladi. U erga shisha elektrod va solishtirish elektrodi bilan ulash uchun elektrolitik ko'priq tushiriladi. Muvozanat hosil bo'lish uchun ikki daqiqa kutiladi. So'ngra millivoltmetr ko'rsatkichi bo'yicha analiz qilinayotgan eritma rN ko'rsatkichi aniqlanadi.

Elektrod potentsiali eritma rN iga bog'liq. Asbob millivoltmetri aynan rN birligida graduirlangan.

Suvning umumiy kislotaliligini aniqlash

Konussimon kolbaga 100 ml vodoprovod suvi solinadi. 2-3 tomchi indikator fenolftalein qo'shiladi. Och pushti rang paydo bo'lguncha namuna 0.1 N NaOH eritmasi bilan titrlanadi. Byuretk belgisi bo'yicha titrlashga sarflangan 0.1 N NaOH hajmini yozib olinadi, ml.

$$K = \frac{N_{NaOH} \cdot V_{NaOH} \cdot 1000}{V_{H_2O}}$$


K – suvning kislotaligi, mg-ekv/l;

N_{NaOH} – ishlatilgan NaOH eritmasining normalligi, mg-ekv/ml;

V_{NaOH} – titrlashga sarflangan NaOH eritmasining hajmi;

V_{H_2O} - olingan suvning hajmi, ml.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Suvning ishqoriyligini aniqlash

Konussimon kolbaga 100 ml vodoprovod suvi solinadi. 2-3 tomchi indikator metiloranj qo'shiladi. Sariq rang pushti rangga o'zgarguncha namuna 0.1 N NSI eritmasi bilan titrlanadi. Byuretk belgisi bo'yicha titrlashga sarflangan 0.1 N NSI hajmini yozib olinadi, ml.

$$III_o = \frac{N_{HCl} \cdot V_{HCl} \cdot 1000}{V_{H_2O}}$$

III_o – suvning ishqoriyligi, mg-ekv/l;

N_{HCl} – ishlatilgan NSI eritmasining normalligi, mg-ekv/ml;

V_{HCl} – titrlashga sarflangan NSI eritmasining hajmi;

V_{H_2O} - olingan suvning hajmi, ml.

Suvning umumiy qattiqligini aniqlash.

Konussimon kolbaga o'lchov silindri yordamida 100 ml vodoprovod suvidan solinadi, ustiga 10-15 ml ammoniyli bufer aralashma va shpatel uchida indikator xromogen qorasidan qo'shiladi va eritmaning rangi binafsha-qizil rangdan havo rangga o'tguncha kompleksion-III eritmasi bilan titrlanadi.

Tajribani 4 marta takrorlab, uchta bir-biriga yaqin qiymatdan o'rtacha natija hisoblanadi va suvning umumiy qattiqligini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{ym.} = \frac{N_{K-III} \cdot V_{K-III} \cdot 1000}{V_{H_2O}} \quad \frac{мг-экв}{л}$$

Bu erda:

K_u – suvning umumiy qattiqligi, mg-ekv/l;

N_{TB} – ishlatilgan trilon B eritmasining normalligi, mg-ekv/ml;

V_{TB} – titrlashga sarflangan trilon B eritmasining hajmi;

V_{H_2O} - olingan suvning hajmi, ml.

Suvdagi nitratlarni aniqlash

Tekshirilayotgan suvdan 50 ml olib sig'imi 100 ml bo'lgan konussimon kolbaga solinadi. Unga 0,1 g quruq Griss reaktivi yoki 2,5 ml eritmasi qo'shiladi va aralashtiriladi. 40 daqiqa o'tgach optik zichlik spektrofotometrda o'lchanadi ($\lambda=536$ nm, $\nu=18600$ s⁻¹) yoki FEK (yashil svetofiltr) da qalinligi $l=1$ sm bo'lgan kyuvetalarda distillangan suv bilan solishtirish orqali o'lchanadi.

Nitratlarning past konsentratsiyalarida (0,007 - 0,05 mg/l) qatlam Qalinligi $l=5$ sm bo'lgan kyuvetalardan foydalanish kerak. O'z navbatida reaktivlar qo'shilmagan eritmaning optik zichligi ham o'lchanadi. Olingan natijalar

namunaning optik zichligidan ayiriladi. Nitratlarning miqdori darajalangan grafikdan topiladi (mg/l).

Darajalangan grafikni qurish

Sig'imi 50 ml bo'lgan o'lchov kolbalariga ishchi eritmadan 0; 0,1; 0,2; 0,4; 0,8; 1; 1,5; 2; 3 ml solinadi va distillangan suv bilan kolbaning belgisigacha suyultiriladi. Bunda quyidagi konsentratsiyali eritmalar hosil buladi: 0,01; 0,02; 0,04; 0,08; 0,1; 0,15; 0,2; 0,3 mg/l. Aniqlashlar yuqorigi bandda ko'rsatilganidek olib boriladi. Eritmalarning optik zichligini aniqlashda suv bilan solishtirib o'lchanadi. Olingan natijalarga ko'ra darajalangan grafik quriladi. O_x o'qiga - nitritlarning konsentratsiyasi, O_u o'qiga - optik zichlik qo'yiladi.

Natijalarni xisoblash

Nitratlarning miqdori S_x quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_x = S \cdot n \quad (\text{mg-N/l})$$

bu erda:

S – nitratlarning konsentratsiyasi, darajalangan grafik asosida topilgan, mg/l;

n – dastlabki namunaning suyultirish darajasi (agar namuna suyultirilmasa $n=1$, agar 10 ml olib 50 ml gacha suyultirilsa u holda $n=5\dots$).

Suvdagi ammiak va ammoniy ionlarini aniqlash

Sifat analizi

10 ml namunaga bir necha segnet tuzi kristallari va 0,5 ml Nessler reaktivi qo'shiladi, Eritmaning sariq rangga kirishi yoki loyqalanishi yoki sariq-jigarrang cho'kmaning tushishi NN_3 borligidan dalolat beradi. Tarkibida ko'p miqdorda organik moddalar ayniqsa gumin kislotalari bo'lishi eritmaning jigarrang tusga kirishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun segnet tuzi va 0,5 ml 15% li NaOH eritmasi qo'shilgandan keyin yuzaki tajriba o'tkaziladi.

Nessler reaktivi bilan aniqlash

$rN > 7$ bo'lganda NH_3 kaliy yodomerkuriat K_2HJ_4 bilan sarik-jigarrang cho'kma hosil qiladi. NH_3 ning past konsentratsiyasida kolloid eritma olish mumkin, u kolorometrik aniqlash uchun yaroqlidir. Bu usul faqat toza suvni,

masalan, ichimlik suvi yoki keldal metodi bilan olingan disstilyatni analiz qilish uchun qo'llaniladi.

Ishning borishi

50 ml namunaga yoki 50 ml rangsizlantirilgan namunaga yoki hajmi bidistillyat bilan 50 ml ga etkazilgan namunaning oz xajmiga 1-2 tomchi komplekson-III qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. 10 daqiqa o'tgandan so'ng kolorimetrda ulchanadi yoki Nessler silindrlarida tayyorlangan standart eritmalar bilan solishtiriladi. Eritma rangi 30 daqiqa davomida o'zgarmaydi. Optik zichlikning olingan natijasidan toza eritmaning optik zichligi ko'rsatkichi ayiriladi. Ba'zi xollarda Nessler eritmasi o'rniga 1 ml 15 % li NaOH eritmasi ishlatilishi mumkin. Darajalangan grafikdan ammiakning miqdori topiladi.

Natijalarni hisoblash

Ammoniy ionlarining NH_4^+ miqdori quyidagi formula orqali (mg/l) (x) yoki (mg-ekv/l) (u) hisoblanadi:

$$X = \frac{C \cdot 50}{V} \quad Y = \frac{C \cdot 50}{18,04 \cdot V} = \frac{2,77 \cdot C}{V}$$

bu erda:

S – ammoniy ionlarining konsentratsiyasi (mg/l);

18,04 – NH_4^+ ekvivalenti;

50 – namuna x,ajmi, ml;

V – analiz uchun olingan namuna hajmi, ml.

Suvdagi sulfatlarni aniqlash

Tahlil uchun olingan namuna N-shakldagi kationit to'ldirilgan kolonka orqali o'tkaziladi. Natijada halaqit qiluvchi kationlar tutib qolinadi. Kolonkadan chiqqan namunadan shunday hajm olinadiki 15-20 ml namuna tarkibida SO_4^{2-} ionlari 1 mg dan kam bo'lmasligi kerak.

Agar sulfatlarning miqdori (10-20 mg/l SO_4^{2-}) ko'rsatilgandan kam bo'lsa, pipetkada 50 ml o'lchab olinadi, erlenmeyer kolbasiga yoki titrlashga mo'ljallangan kolbaga solinadi va 10-20 mg gacha buglantiriladi. So'ng spirt

yoki atsetondan 20-40 ml qo'shiladi va kukunsimon ditizondan eritma yashil rangga kirguncha solinadi. Aralashma 0,02 n $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$ eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash eritma yashil rangdan qizil-siyoh rangga o'tguncha davom ettiriladi. Agar sulfatlarning konsentratsiyasi past bo'lsa, u holda $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$ ning past konsentratsiyali eritmasi ishlatiladi.

Natijalarni hisoblash

Sulfat ionlarining miqdori X (mg/l) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{a \cdot k \cdot 0,02 \cdot 48,03 \cdot 1000}{V} = \frac{a \cdot k \cdot 960,6}{V}$$

bu erda:

a - titrlash uchun sarf bo'lgan 0,02 n $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$ eritmasi, ml;

k - $\text{Rb}(\text{NO}_3)_2$ eritmasini normalligiga aniq 0,02 n ga to'g'rilash koefitsienti;

V - tekshirish uchun olingan namuna hajmi, ml;

48,03 - SO_4^{2-} - ionining ekvivalenti.

3-BOB.

OLINGAN NATIJALAR

MUHOKAMASI

3-BOB. OLINGAN NATIJALAR MUHOKAMASI

3.1. Toshkent shahridagi suv havzalarining holatini baholash

Bugungi kunda ko'pgina sanoat korxonalari tarkibi turlicha bo'lgan oqova suvlarni tabiiy suv havzalariga tashlaydilar. Oqova suvlarning tarkibi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turiga va tozalash inshootlarining tozalash samaradorligiga bog'liq.

2012 yil bo'yicha

Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi Analitik nazoratga ixtisoslashgan inspeksiyasi tomonidan 5 ta suv havzasi (Salar kanali, CHirchiq daryosi, Buzsuv kanali, Qoraqamish kanali, Qorasuv kanali) va 8 ta korxona ("Suvsoz" DUK ga qarashli Salar aeratsiya stansiyasi, Bo'zsuv aeratsiya stansiyasi va Bektemir tozalash inshootit, "RAF" OAJ,"TTZ" OAJ, "ToshIES" OAJ, "Nerudnik" OAJ, Issiqlik markasi №1, №3, №4, №5, №6, №8, №9 №10, "Zenit" OAJ kuzatildi va nazorat qilindi.

Birgina 2012 yilda 402 ta namuna namuna olindi va 7058 ta tahlillar olib borildi.

CHirchiq daryosida 2011 yilga nisbatan neft mahsulotlarining miqdori 0.17 mg/l dan 0.13 mg/l gacha, sulfatlar esa 68.4 mg/l dan 61.2 mg/l ga tushganligi kuzatildi. Ammoniyli azotning miqdori 0.31 mg/l dan 0.37 mg/l gacha, nitratlar azotining miqdori 2.2 mg/l dan 2.85 mg/l ga, fosfatlar 0.23 mg/l dan 0.25 mg/l ga, XPK 24.6 mg/lO₂ dan 42.7 mg/l O₂ ga oshganligi kuzatildi. Temir, nitritlar azoti, BPK miqdori o'zgarmagan.

Suvning 10 CHMM dan yuqori ifloslanish holatlari kuzatilmadi.

Bo'zsuv kanali bo'yicha 2011 yilga nisbatan 2012 yilda quyidagi moddalar miqdori o'zgargan: nitritli azot miqdori 0.05 mg/l dan 0.04 mg/l ga, muallaq moddlar 23.0 mg/l dan 17.8 mg/l g, xloridlar 18.5 mg/l dan 11.5 mg/l ga kamaygan.

Ammoniyli azotning miqdori 0.22 dan 0.43 mg/l ga, fosfatlar 0.15 mg/g dan 0.30 mg/l ga, temir 0.17 mg/l dan 0.21 mg/l ga, neft mahsulotlari 0.09 dan 0.14mg/l ga, XPK 30.4 mg/lO₂ dan 38.9 mg/lO₂ ga oshgan.

Sulfatlar, quruq qoldiq, nitritli azot, BPK, kislorod rejimi o'zgarmagan. Suvning 10 CHMM dan yuqori ifloslanish holatlari kuzatilmadi.

Salar kanali bo'yicha 2011 yilga nisbatan 2012 yilda quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: xloridlar miqdori 30.1 mg/l dan 213.9 mg/l ga, sulfatlar 162.9 mg/l dan 122.2 mg/l ga, amoniyli azot 0.69 mg/l dan 0.35 mg/l ga, nitratli azot 3.4 mg/l dan 2.4 mg/l ga, temir 0.15 dan 0.12 mg/l ga, neft mahsulotlari 0.14 mg/l dan 0.13 mg/l ga, BPK 4.0 mg/lO₂ dan 3.5 mg/l O₂ ga kamayganligi aniqlandi.

Toshisliqlik markazi OAJ №9 ning tashlama oqova suvlari taribidagi nitratlar miqdori 1.2 marataga, XPK bo'yicha 1.3 martaga, temir bo'yicha 3.2 martaga oshib ketganligi aniqlandi.

Suvsoz DUK ga qarashli Salar aeratsiya stansiyasi Salar kanaliga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 2.4-2.5 martaga, neft mahsulotlari 6.6-7.2 martaga, XPK bo'yicha 1.3 martaga, temir bo'yicha 1.6-1.7 martaga, xrom (+6) bo'yicha 1.12-1.25 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 1.3-1.33 martaga, BPK bo'yicha 1.4-1.5 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Suvsoz DUK ga qarashli Bo'zsuv aeratsiya stansiyasi Bzzsuv kanaliga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 3.2-3.25 martaga, neft mahsulotlari 5.4-6.6 martaga, XPK bo'yicha 1.6-1.9 martaga, temir bo'yicha 1.15-1.4 martaga, xrom (+6) bo'yicha 1.12-1.25 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 1.3-1.5 martaga, BPK bo'yicha 1.4-1.9 martaga, mis bo'yicha 3.0 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Suvsoz DUK ga qarashli Bektemir tozalash stansiyasi CHirchiq daryosiga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 1.75 martaga, fosfatlar 1.5 martaga, temir bo'yicha 1.4 martaga, mis bo'yicha 1.5 martaga, xrom (+6) bo'yicha 1.4 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 1.5 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 7.2 martaga, XPK bo'yicha 1.6 martaga, BPK bo'yicha 2.2 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

ToshIES OAJ Salar kanaliga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida nitritlar bo'yicha 2.0-2.1 martaga, temir bo'yicha 7.2 martaga, mis bo'yicha 1.3-1.4 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 1.1-1.2 martaga, XPK bo'yicha 1.2-1.4 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

RAF OAJ Salar kanaliga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot bo'yicha 1.8-3.0 martaga, sulfatlar bo'yicha 3.1-3.2 martaga, nitritlar bo'yicha 1.5-3.5 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 4.8-5.2 martaga, BPK bo'yicha 2.3-3.2 martaga, XPK bo'yicha 3.0-3.58 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Zenit OAJ Qoraqamish kanaliga tashlaydigan oqova suvlari tarkibida sulfatlar bo'yicha 1.8 martaga, nitritlar bo'yicha 2.5 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 1.6 martaga, XPK bo'yicha 1.9 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Qoraqamish kanai bo'yicha 2012 yilda 2011 yilga nisbatan quyidagi moddalarda o'zgarishlar kuzatildi – ammoniyli azot miqdori 0.14 mg/l dan 0.1 mg/l ga kamaydi, nitratli azot 2.72 mg/l dan 2.1 mg/l ga kamaydi, XPK 35.7 mg/l O₂ dan 33.5 mg/l O₂ ga kamaydi. Xloridlar konsentratsiyasi 24.9 mg/l dan 32.0 mg/l ga oshgan, sulfatlar 194.8 mg/l dan 379 mg/l ga, quruq qoldiq 573 mg/l dan 658 mg/l ga, nitritli azot 0.029 mg/l dan 0.035 mg/l ga, fosfatlar 0.12 mg/l dan 0.13 mg/l ga, temir 0.17 mg/l dan 0.24 mg/l ga, neft mahsulotlari 0.12 mg/l dan 0.17 mg/l ga oshgan. BPK, xrom va mis o'zgarmay qolgan.

Suvning 10 CHMM dan yuqori ifloslanish holatlari kuzatilmadi.

2013 yil bo'yicha

Qorasuv kanali bo'yicha 2013 yilda 2012 yilga nisbatan quyidagi moddalar miqdori o'zgargan: neft mahsulotlari 3.1 CHMM dan 2.7 CHMM ga, nitritlar 4.25 CHMM dan 1.82 CHMM ga, ammoniyli azot 0.4 CHMM dan 0.22 CHMM ga, temir 2.9 CHMM dan 2.1 CHMM ga, fosfatlar 0.85 CHMM dan 0.52 CHMM ga kamaygan.

XPK 1.6 CHMM dan 2.35 CHMM ga oshgan. Xrom (6+) mavjud emas. Xloridlar, sulfatlar o'zgarmagan.

Suvning 10 CHMM dan yuqori ifloslanish holatlari kuzatilmadi.

Qoraqamish kanali bo'yicha 2013 yilda 2012 yilga nisbatan nitritlar 3.5 CHMM dan 2.7 CHMM ga, sulfatlar 3.95 CHMM dan 3.7 CHMM ga, neft mahsulotlari 5.75 CHMM dan 2.7 CHMM ga, fosfatlar 0.9 CHMM dan 0.4 CHMM ga, temir 3.25 CHMM dan 3.0 CHMM ga, BPK 1.5 CHMM dn 1.3 CHMM ga, XPK 2.8 CHMM dan 2.6 CHMM ga kamaygan.

Ammoniyli azot miqdori 0.45CHMM dan 1.0 CHMM ga oshgan. Mis konsentratsiyasi 1.2 CHMM ni tashkil qilgan. Xrom (6+) o'zgarmay qolgan.

Suvning 10 CHMM dan yuqori ifloslanish holatlari kuzatilmadi.

Toshissiqlik markazi №1 OAJ Bo'zsuv kanaliga tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra nitritlar bo'yicha 1.3 marta, neft mahsulotlari bo'yicha 1.1 marta oshganligi kuzatildi.

Toshissiqlik markazi №3 OAJ Salar kanaliga tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra temir bo'yicha 1.8 marta, nitritlar bo'yicha 1.2 marta, XPK bo'yicha 1.25 marta oshganligi kuzatildi.

Toshissiqlik markazi №4 OAJ Qoraqamish kanaliga tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra nitritlar bo'yicha 2.0-2.7 marta, neft mahsulotlari bo'yicha 1.34-1.42 marta, rux bo'yicha 1.2 marta oshganligi kuzatildi.

Toshissiqlik markazi №5 OAJ Izza arig'iga tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra temir bo'yicha 1.3 marta oshganligi kuzatildi.

Toshissiqlik markazi №6 OAJ Boratxo'ja arig'iga tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra nitritlar 1.2 marta, temir bo'yicha 1.2 marta oshganligi kuzatildi.

Toshissiqlik markazi №8 OAJ SHaqirariqqa tashlamalarni tashlashda CHMT miqdoriga ko'ra nitritlar 2.0 marta, temir bo'yicha 4.0 marta, neft mahsulotlari bo'yicha 1.4 marta, BPK bo'yicha 1.1 marta oshganligi kuzatildi.

Suvsoz DUK ga qarashli Salar aeratsiya stansiyasi Salar kanaliga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 1.95-2.1 martaga, neft mahsulotlari 4.0 martaga, XPK bo'yicha 1.9-1.96 martaga, muallaq

moddalar bo'yicha 1.4-1.53 martaga, BPK bo'yicha 1.4-1.53 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Suvsoz DUK ga qarashli Bo'zsuv aeratsiya stansiyasi Bo'zsuv kanaliga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 2.1-2.3 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 1.54-1.8 martaga, XPK bo'yicha 1.2-1.45 martaga, fosfatlar bo'yicha 1.3 martaga, neft mahsulotlari 4.6-5.4 martaga, BPK bo'yicha 1.3-1.7 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Suvsoz DUK ga qarashli Bektemir tozalash stansiyasi CHirchiq daryosiga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida ammoniyli azot miqdori 1.6 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 3.0 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 1.5 martaga, XPK bo'yicha 1.45 martaga, BPK bo'yicha 2.0 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

ToshIES OAJ Salar kanaliga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida nitritlar bo'yicha 1.25-1.5 martaga, XPK bo'yicha 1.4 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.


Nerudnik OAJ CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida nitritli azot bo'yicha 1.3-1.5 martaga, muallaq moddalar bo'yicha 2.7-2.8 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 1.7-1.8 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

RAF OAJ Salar kanaliga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida nitritli azot bo'yicha 1.75 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 1.13 martaga, BPK bo'yicha 1.35 martaga, XPK bo'yicha 1.8 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Zenit OAJ Qoraqamish kanaliga CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida sulfatlar bo'yicha 1.5 martaga, nitritlar bo'yicha 1.5 martaga, temir bo'yicha 1.3 martaga, neft mahsulotlari bo'yicha 1.12 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

Zenit OAJ Svetlyak d. ga (Qorasuv kanali) CHMT ga ko'ra tashlaydigan oqova suvlari tarkibida nitrili azot 1.5 martaga, temir bo'yicha 1.6 marta, neft mahsulotlari bo'yicha 1.1 martaga, XPK bo'yicha 2.1 martaga miqdori oshganligi aniqlandi.

1-rasmda 2011-2013 yy. natijalari bo'yicha Toshkent shahridagi suv oqimlarining ifloslangan indeksi (SII) keltirilgan.



1-rasm. 2011-2013 yy. natijalari bo'yicha Toshkent shahridagi suv oqimlarining ifloslangan indeksi (SII)

Izoh: SII – suvning ifloslanganlik indeksi - suvning shkala bo'yicha sifatini tavsiflaydi:

- 1 sinf: 0.3 – juda toza suv;
- 2 sinf: 0.3-1.0 – toza;
- 3 sinf: 1.1-1.25 – o'rtacha ifloslangan;
- 4 sinf: 2.5-4.0 – ifloslangan;
- 5 sinf: 4.1-6.0 – iflos;
- 6 sinf: 6.0-10.0 – juda iflos;
- 7 sinf: 10 dan yuqori – favqulotda iflos.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2011 yildan 2013 yilgacha Salar, Qoraqamish, Salar, CHirchiq daryolarida suvning ifloslanganlik indeksi oshgan.


3.2. Salar daryosi tarkibidagi zaharli moddalarning miqdorini aniqlash va uning monitoringi

Tabiiy suvlarning ifloslanishi nafaqat insonlarga balki hayvonot dunyosi, o‘simlik dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. SHuning uchun tabiiy suvlarni ifloslanmasligiga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Tabiiy suvlarning iflooslanish ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha kuzatuv, monitoring ishlarini olib borish, ifloslantirayotgan manbalarni aniqlash, korxonalarga yangi tozalash inshootlarini o‘rnatish, ularni rekonstruksiyalash bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu borada bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Salar daryosida jami 7 ta nuqtada ammoniyli azot, nitratli azot, nitritli azot, BPK, kislorod, neft mahsulotlari, xrom (6+), mis, minerallalik, quruq qoldik konsentratsiyalari aniqlanib, qaysi nuqtada ushbu ko‘rsatkichlarning oshib ketayotganligi aniqlandi va tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishi haqida xulosa qilindi.

Salar kanalining 2012yil 2 kvartali bo'yicha tarkibi

№	Kuzatish tabaqasi	Ammoniyli azot	Nitratli azot	Nitritli azot	BPK	Kis lorod	Neft maxsulot-lari	Xrom (VI)	Mis	Quruq qoldiq	SII 2 kv 2012	SII 2 kv 2011
1	SHaxarga kirish	0,20	0,90	0,37	0,97	2,64	1,56	0,00	1,0000	0,640	0,36	0,57
2	Xayvonot bog'idan yuqorida	0,70	1,00	0,36	1,00	2,67	3,00	0,00	1,1000	0,670	1,17	0,68
3	Xayvonot bog'idan pastda	0,80	3,00	0,32	1,03	2,64	2,40	0,00	1,2000	0,700	1,05	0,71
4	Toshqishloq mash OAJ dan yuqorida	0,60	1,50	0,31	0,94	2,67	2,70	0,00	1,0000	0,640	1,15	0,78
5	"Toshto'qimamash" dan yuqorida	0,58	2,25	0,30	1,03	2,64	3,50	0,00	1,100	0,710	1,33	1,31
6	SSA dan yuqorida	0,22	3,00	0,29	1,17	2,67	2,96	1,00	1,3000	0,650	1,47	1,13
7	SSA dan pastda	1,92	4,50	0,31	3,14	2,15	5,20	1,00	1,300	0,500	2,22	2,19
8	2012 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0,69	2,31	0,32	1,33	2,59	3,05	0,29	1,2000	0,65	1,38	
9	2011 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	1,07	2,66	0,29	1,23	0,59	2,68	0,01	0,00	0,54	1,00	1,06




2-rasm. Salar daryosini 2011-2012 yillarning 2 kvartalidagi tarkibining o'zgarishi

2-rasm va 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2011 yilga nisbatan 2012 yilning 2-kvartalida ammoniyli azot, nitratli azot, BPK ko'rsatkichi, kislorod miqdori, mis ionlari, neft mahsulotlari konsentratsiyasi CHMM miqdori bo'yicha suvning ifloslanganlik indeksi kamaygan.

Salar kanalining 2012yil 3 kvartali bo'yicha tarkibi

№	Kuzatish tabaqasi	Ammoniyli azot	Nitratli azot	Nitritli azot	BPK	Kislo-rod	Neft maxsulot- lari	Xrom (VI)	Mis	Mineralli k	SII 3 kv 2012	SII 3 kv 2011
1	SHaxarga kirish	0,23	1,20	0.27	1.03	2.60	1.40	0,00	1,0	0,51	0,92	0,77
2	Xayvonot bog'idan yuqorida	0.23	6.0	0.26	0.97	2.10	2.0	0,00	1.20	0.54	1.47	0.86
3	Xayvonot bog'idan pastda	0.44	1.5	0.29	1.0	2.70	3.0	0,00	1.10	0.61	1.14	0.94
4	Toshqishloqmash OAJ dan yuqorida	0.16	2.5	0.3	0.93	2.63	2.40	0,00	1.0	0.72	1.18	1.12
5	"Toshto'qimamas h"dan yuqorida	0.44	3.0	0.31	1.03	2.63	5.0	0,00	1.10	0.63	1.59	1.34
6	SSA dan yuqorida	0.24	4.0	0.33	1.10	2.70	5.4	0,00	1.20	0.68	1.74	0.82
7	SSA dan pastda	3.80	2.5	0.25	3.70	2.70	6.80	0,00	1.0	0.55	2.49	2.53
8	2012 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0.79	2.96	0.28	1.39	2.60	3.63	0.14	0.08	0.61	1.50	
9	2011 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0.93	2.79	0.35	1.7	0.58	2.71	0.47	1.12	0.56		1.20




3-rasm. Salar daryosini 2011-2012 yillarning 3 kvartalidagi tarkibining o'zgarishi

3-rasm va 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2011 yilga nisbatan 2012 yilning 3-kvartalida ammoniyli azot, nitratli azot miqdori o'zgarmagan, BPK ko'rsatkichi, nitratli azot miqdori oshgan, kislorod miqdori, mis ionlari, neft mahsulotlari konsentratsiyasi CHMM miqdori bo'yicha suvning ifloslanganlik indeksi kamaygan.

Salar kanalining 2012yil 4 kvartali bo'yicha tarkibi

№	Kuzatish tabaqasi	Ammoniyli azot	Nitratli azot	Nitritli azot	BPK	Kislo-rod	Neft maxsulot-lari	Xrom (VI)	Mis	Mine-rallik	SII 3 kv 2012	SII 3 kv 2011
1	SHaxarga kirish	0.08	1.0	0.22	0.97	2.63	1.27	0	1.0	0.59	0.86	0.95
2	Xayvonot bog'idan yuqorida	0.24	1.50	0.29	1.10	2.63	1.5	0	1.2	0.54	1.0	0.98
3	Xayvonot bog'idan pastda	0.28	5.00	0.31	1.07	2.67	1.8	0	1.3	0.53	1.44	1.0
4	Toshqishloqmash OAJ dan yuqorida	0.20	4.00	0.26	1.00	2.63	2.2	0	1.2	0.70	1.35	1.19
5	"Toshto'qimamash" dan yuqorida	0.24	3.00	0.31	0.97	2.67	3.0	0	1.1	0.68	1.24	1.1
6	SSA dan yuqorida	0.20	3.00	0.26	0.93	2.67	2.4	0	1.1	0.61	2.56	1.29
7	SSA dan pastda	3.60	5.75	0.20	2.70	1.98	6.2	0	1.1	0.56	1.4	2.56
8	2012 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0.69	3.32	0.26	1.25	2.55	2.62	0.14	1.14	0.6		
9	2011 yil 2-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	1.39	3.36	0.38	1.29	0.60	2.83	0.47	1.16	0.59		1.3




4-rasm. Salar daryosini 2011-2012 yillarning 4 kvartalidagi tarkibining o'zgarishi

4-rasm va 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2011 yilga nisbatan 2012 yilning 4-kvartalida ammoniyli azot miqdori oshgan, nitratli azot, BPK ko'rsatkichi, nitratli azot, mis ionlari, neft mahsulotlari konsentratsiyasi CHMM miqdori bo'yicha suvning ifloslanganlik indeksi kamaygan.

Salar kanalining 2013 yil bo'yicha tarkibi

№	Kuzatish tabaqasi	Ammoniyli azot	Nitratli azot	Nitritli azot	BPK	Kislorod	Neft maxsulotlari	Xrom (VI)	Mis	Minerallik	SII 2013	SII 2012
1	SHaxarga kirish	0,13	0,3	0,50	1,06	2,70	1,80	0	1,1	0,73	0,9	0,86
2	Xayvonot bog'idan yuqorida	0	0,2	2,00	1,1	2,67	3,60	0	1,1	0,76	1,29	1,00
3	Xayvonot bog'idan pastda	0	0,25	1,50	1,20	2,63	4,60	0	1,1	0,80	1,37	1,44
4	Toshqishloqmash OAJ dan yuqorida	0,28	0,3	2,50	1,06	2,67	5,40	0	1,2	0,74	1,5	1,35
5	"Toshto'qimamash" dan yuqorida	0,36	0,3	2,00	1,23	2,67	5,00	1	1,1	0,83	1,60	1,53
6	SSA dan yuqorida	0,64	0,2	2,50	1,20	2,63	4,6	0	1,0]	0,75	1,50	1,2
7	SSA dan pastda	3,80	0,3	5,00	3,80^	2,20	6,4	1	1,2	0,69	2,72	2,6
8	2013 yil 1-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0,80	0,3	2,30	1,37	2,60	4,49	0	1,1	0,55	1,56	
9	2012 yil 1-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0,69	0,26	3,320	1,25	2,55	2,62	0	1,1	0,60		1,40




5-rasm. Salar daryosini 2012-2013 yillardagi tarkibining o'zgarishi

5-rasm va 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012 yilga nisbatan 2013 yilda ammoniyli azot, nitratli azot, BPK ko'rsatkichi miqdori oshgan, mis ionlari, neft mahsulotlari konsentratsiyasi, nitritli azot miqdori CHMM miqdori bo'yicha suvning ifloslanganlik indeksi kamaygan.

Salar kanalining 2014 yil 1 kvartali bo'yicha tarkibi

№	Kuzatish tabaqasi	Ammoniyli azot	Nitratli azot	Nitritli azot	BPK	Kis lorod	Neft maxsulot-lari	Xrom (VI)	Mis	Mineral-lik	SII 2013	SII 2012
1	SHaxarga kirish	0,11	0,32	0,27	1,07	2,63	2,00	0,00	1,0000	0,680	0,90	1,00
2	Xayvonot bog'idan yuqorida	0,24	1,00	0,31	1,07	2,63	2,20	0,00	1,0000	0,720	1,02	0,95
3	Xayvonot bog'idan pastda	0,52	2,00	0,29	1,10	2,67	3,00	0,00	1,2000	0,740	1,28	0,99
4	Toshqishloqmash OAJ dan yuqorida	0,48	1,50	0,32	1,03	2,67	2,60	0,00	1,1000	0,700	1,16	1,10
5	"Toshto'qimamash" dan yuqorida	0,56	4,00	0,30	1,07	2,63	3,80	0,00	1,200	0,720	1,59	1,18
6	SSA dan yuqorida	0,68	3,00	0,32	1,17	2,67	5,00	0,00	1,2000	0,680	1,63	1,18
7	SSA dan pastda	4,40	5,00	0,28	2,97	1,87	5,80	1,10	1,300	0,560	2,59	2,48
8	2013 yil 1-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	1,00	2,40	0,30	1,35	2,54	3,50	0,16	1,1000	0,68	1,45	
9	2012 yil 1-kvartali bo'yicha o'rtacha miqdori	0,66	1,90	0,32	1,60	2,56	2,57	0,16	1,20	0,60		1,29



6-rasm. Salar daryosini 2013-2014 yillar 1 kvartalidagi tarkibining o'zgarishi

6-rasm va 5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013 yilga nisbatan 2014 yilning 1-choragida ammoniyli azot, nitratli azot, neft mahsulotlari, quruq qoldiq miqdorlari kamaygan, nitritli azot miqdori oshgan, BPK ko'rsatkichi, kislorod miqdori CHMM miqdori bo'yicha suvning ifloslanganlik indeksi o'zgarmagan.

YUqoridagilardan xulosa qilib shuniyitish mumkinki, suv havzalarida amoniyl azot, nitritlar, BPK ko'rsatkichi, neft mahsulotlari mis ionlarining oshib ketishiga suv havzalari korxonalar tomonidan tashlanayotgan oqova suvlar taribidagi zaharli moddalarning konsentratsiyasi me'yordan oshib ketganligi, tozalash inshootlarining tozalash samaradorligi pastligi sabab bo'ladi.

Ko'pgina xollarda nitritlar, BPK ko'rsatkichi, neft mahsulotlari mis ionlari konsentratsiyasi 1.5-4.0CHMM miqdorini tashkil qilganligi sababli, ushbu moddalar bilan ifloslangan suvlar 4 sinfga, ya'ni ifloslangan suv havzalari turiga kiradi.

Hozirgi kunda ko'pgina korxonalarda tozalash inshootlari rekonstruksiya qilinmagan, eski texnologik sxemalar asosida ishlayapti. Suv havzalariga zaharli moddalarning CHMM miqdoridan ko'p miqdorda tashlanmasligini oldini olish maqsadida quyidagi tashkiliy va chtexnik chora tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- mavjud tozalash inshootlarining texnologik sxemasiga modernizatsiya qilish hisobiga o'zgartirish kiritish;
- tozalash inshootlari va jihozlarini zamonaviy turlari bilan almashtirish;
- iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida mahalliy xom-ashyolar asosida olinadigan kimyoviy reagentlardan foydalanish;
- tashlanayotgan oqova suvlarni muntazam ravishda tashlashdan avval namuna olib laboratoriyada tahlil ishlarini olib borish;
- BPK ko'rsatkichi, nitritlar va nitratlar miqdorini kamaytirish uchun aerotenklar bilan birga zamonaviy biofiltrlar yoki membranali bioreaktorlarni qo'llash va x.k.

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

Mustaqillik sharofati bilan inson manfaati, uning qadr-qimmati va sihat-salomatligiga alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon Prezidentimiz olib borayotgan siyosat, huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidagi sa'y-harakatlari tufayli mamlakatimiz aholisining turmush tarzi, madaniy va ma'naviy hayot darajasi kundan kunga taraqqiy etib bormoqda.

Fan va texnika rivoji bilan mehnatga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Dunyo mamlakatlarining har birida mehnat muhofazasiga doir qonun va hujjatlar o'ziga mos ravishda ishlab chiqildi. Respublikamizning Konstitutsiyasida xam ushbu masala puxta ishlab chiqilgan va uning haqiqiy ko'rinishi qo'yidagicha qabul qilingan qonunlarda o'z ifodasini topgan:

-1992 yil 13 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi;

- 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risidagi»;

- 1993 yil 6 mayda esa O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi» qonuni qabul qilingan.

1994 yil 1 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi qabul qilindi.

1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi» qabul qilindi.

Atmosferaga xar xil zararli moddalar chiqaradigan korxonalarni axoli yashaydigan tumanga nisbatan «shamollar guldastasi» tomoniga joylashtiriladi.

Korxona ma'muriyati mehnatni muhofaza qilishning zamonaviy vositalarini joriy etishi va kasb kasalliklarining oldini oladigan sanitariya-gigiena sharoitlari ta'minlanishi uchun mas'ul hisoblanib, hodim salomatligi yoki hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lish hollarida javobgar hisoblanadi.

Har bir korxona o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda mehnatni muhofaza qilish bo'limini yoki xavfsizlik texnikasi muhandisi lavozimidagi shtat birligini

tashkil qilishi shart. Uning asosiy vazifasi korxonada mehnat qilayotgan xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoidasi talablarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish borasida bir qancha qonuniyatlar qabul qilingan. Bu qonunlar faqat ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi qoidalarini nazorat qilib qolmay, balki mehnat muhofazasi qonunlari buzulmasligi uchun javobgardir.

Oqova suvlarni tozalash stansiyasida "Mehnatni muhofaza qilish" borasidagi tadbirlar qabul qilingan bo'lib, ular mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish borasidagi uslubiy qo'llanmalar, instruksiya ko'rsatmalar, tavsiyalar kabi umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalari O'zbekiston Respublikasi 2009 y 47-son 59 moddasida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2009 y 16 noyabrda 2042 soni bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2000 y 267-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlar to'plami, 2000 y 7-son 39 modda bilan tasdiqlangan.

Obyektlarda xodimlar xavfli va zararli ishlab chikarish omillari ularning tavsifi, yuzaga kelish ma'nbalari, ishchilarga ta'sir qilish xususiyatlari va salomatlik uchun xavfli darajasi va kelgusidagi oqibatlari to'g'risida ma'lumotga ega. Ish joylaridagi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoning xavfli hamda zararli omillari to'g'risida ma'lumotlar, ishlab chiqarish muhitining fizik, kimyoviy, radiologik, mikrobiologik va mikroiqlim o'lchovi natijalari, shuningdek og'irligi ish joylarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiya qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Korxona o'ta xavfli sharoitda bajariladigan kasblar va ishlar ro'yxatiga ega. Ro'yxatda, aniq te'nologik jarayon, ishlab chiqarish uskunasi, ishlatiladigan xom ashyo va ishlarni amalga oshirish xususiyatlari bilan bog'liq xavflar xisobga olingan.

Barcha xodimlar o'ta xavfli ishlarni bajarishdan oldin, mehnat muxofazasi bo'yicha yo'l-yo'riq olish va ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'zlashtirib olganlar.

Korxonalar shamol yo'nalishi bo'yicha SNiP 2.01.01.83 ga asosan joylashgan. Bunda zaxarli gaz va changlarni chiqishi xisobga olinib korxona axoli punktiga teskari qilib joylashtirilgan. Bu esa zaxarli gaz va changlarni axoli punktiga etib kelmasligini ta'minlaydi.

Texnologik jarayon uzluksiz va davriy tarzda davom etadi. Ish ikki smenada olib boriladi. GOST 12-2.03.91 QMQ-3-05-98 ga asosan "Texnologik jarayonlarni tashkilashtirish sanitariya qoidalari va ishlab chiqarish jihozlariga gigenik talablar" ga muvofiq tashkil qilingan. Xom ashyo va materiallarni qayta ishlash texnologik uskunaning pasportida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxonada SanPiN-0120-01, SanPiN 122-01 ga asosan shovqin, tebranishdan ximoya choralari ko'rilgan. SHovqin, tebranishdan ximoyalash maqsadida, desorbsiya sexini ishlab chiqarish maydonidan tashqariga joylashtirilgan. Sex, bo'limlarni eshik, derazalari maxsus tovush o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan.

Korxona bo'limlarini yoritish asosan tabiiy va sun'iy ravishda amalga oshiriladi. Kunduz kuni asosan tabiiy yorug'likdan foydalaniladi. Tabiiy yoritilish SNiP 2-01-05.98 ga asosan qabul qilingan. Kechki smenalarda esa, sun'iy yoritishdan foydalaniladi, yoritilish uchun lyumenissent lampalardan foydalaniladi.

Laboratoriya va sexlar havosini mo'tadillashtirilib turish uchun shamollatash qurilmalaridan foydalaniladi. Isitish SanPiN -0058-96 ga asosan amalga oshiriladi. Shamollatish qurilmalaridan to'g'ri foydalanish, uni to'liq ishlaydigan holatda bo'lishi uchun javobgarlik, mexanik zimmasiga, sexda esa sex boshlig'i va mexanik zimmasiga yuklatilgan.

Elektr uskunalarining nosozligi yoki ularning ishlatish qoida talablariga amal qilmaslik ishchi-xizmatchilarning shkastlanishiga olib keladi. Insonlarni elektr toki ta'sirida shkastlanishidan himoya qilish uchun ishlab chiqarish sharoitlarida xavfsiz tok usti qoplangan simlar, erga ulangan va neytrallovchi

ximoya tizimlaridan foydalanilgan. Shuningdek, elektr uskunalarni tanlash, o'rnatishda mavjud bo'lgan qonun-qoidalar normalariga amal qilingan.

Ishchilar va xizmatchilarni shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlash.

Ta'sir etuvchi zaxarli gaz va chang bilan ishlovchi sexlarda, ishchi va xizmatchilar obyekt fuqaro muhofazasi bo'limi (FM shtab) xodimlari tomonidan shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlanganlar.

Nafas olish organlarini muxofazalash maqsadida shaxsiy ximoya vositalaridangazniqoblar nazarda tutilgan.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

1. Filtrovchi gazniqoblar (GP 5, GP 7, GP 9, PDF 2SH);
2. Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarining eng oddiy himoya vositalari:

1. Respiratorlar;
2. Changga qarshi matoli niqoblar;
3. Paxta dokali bog'gich.

SNiP- 2.08.12.98 ga asosan ishchi-xizmatchilar uchun dam olish, ovqatlanish, uy va ish kiyimlarini saqlash xonasi, zararsizlantirish, yuvish-yuvinish va boshqa madaniy-sanitariya xizmatlari uchun mo'ljallangan qo'shimcha binolar qurilishi lozim.

Korxonada yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirish, tashkillashtirish va olib borish SNiP-2.01.02-04 ga asosan, "YOng'in xavfsizligi" umumiy talablariga ONTP 24/86 ga asosan "Portlash xavfi" umumiy talablariga va ushbu qoidalarga muvofiq ta'minlangan. Ishlab chiqarishda o'rganilmagan yong'in va portlash xavfi va toksik xususiyatlariga ega bo'lgan modda va materiallar qo'llanilmaydi.

Korxona binolarining yong'in xavfsizligi ularning o'tga chilamlilik darajasi bilan aniqlangan. SNiP 2.09.12-98 ga asosan qurilish materiallari bo'yicha yonmaydigan, qiyin yonadigan xillari mavjud.

Yong'in yoki avariya sodir bo'lishida odmlrni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo'llari binolarni loyihalash va qurish vaqtida hisobga olingan. YOng'in

havfsizligi norma qodalariga asosan evakuatsiya yo'llari o'tga chidamli materiallardan tayyorlangan, harakat yo'lida hech qanday to'siqlar yo'q. Korxona binosida 2ta chiqish evakuatsiya yo'llari mavjud.

Barcha ishlab chiqarish sexlarida, xom ashyo va tayyor maxsulot omborxonalari ma'muriy va boshqa yordamchi binolar hamda inshootlar dastlabki yong'inni o'chirish vositalari bilan ta'minlangan.

Bino va yong'in suv ma'nbalari yo'lkalari hamda yong'in vositalari va uskunalariga boradigan yo'lkalar doimo bo'sh bo'lishi ta'minlangan, binolar oralig'idagi yong'inga qarshi masofa uzulmalarida materiallar, uskunalar, bo'sh idishlar taxlashga ruxsat etilmaydi.

O'tni o'chirish birlamchi vositalaridan xarakatlanadigan, qo'lda ishlataligan o't o'chirgichlar, gilropulpalar, chelak, suvli bochka, belkurak, qumli yashik, asbest yopgich, namat va boshqa yonmaydigan buyumlari mavjud.

YOng'in haqida tez xabar berish uchun yuqori havfli hisoblangan texnologik uskunalarda, ishlab chiqarish binolarida, omborlarda darakchi vositalari SNIP-2.04.02-84, GOST 12.2.2002.89 ga asosan o'rnatilgan. Bu vositalar yonayotgan manba, joyini o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

FUQARO MUHOFAZASI

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida umumiy xavfsizlikni va barqaror rivojlanishni ta‘minlash muammolarini batafsil ochib berib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash va uni boshqarishda amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan ishlarga oqilona yondoshishni qayta —qayta ta’kidlab o‘tgan.

BMT “Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti” ning xujjatlarida dunyoda taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borishi bilan yonma – yon, xavf - xatar ham oshib bormoqda, shu bois «Barqaror rivojlanish kafolati – bu fuqarolar muhofazasidir» deb yozib qo‘yilgan.

Shuning uchun fuqaro muhofazasi va uni boshqarishga alohida e‘tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqaro muhofazasiga Vazirlar Maxkamasi umumiy rahbarlik qiladi. U fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarilishini ta‘minlovchi tadbirlar hajmini va o‘tkazilish muddatini belgilab beradi. Raxbarlik funksiyasini xukumat Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi (FVV) orqali amalga oshiradi.

Fuqaro muhofazasiga favqulodda vaziyatlar (FV) dan muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli organ Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) bevosita rahbarlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

- favqulodda vaziyatlarni oldini olish, bunday vaziyatlarda aholi hayoti va sog‘ligini moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi, hamda amalga oshiradi;

- aholi va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilishini tashkil etadi;

- o‘z vakolat doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlarni qabul qiladi;

- boshqaruv organlarining aholini va xududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi;

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishni amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi.

Sanab o'tilgan vazifalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining viloyatlar, tumanlar va shaharlar xokimliklarining, vazirliklar va idoralarning, korxona, muassasa va tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari hamda vositalaridan iborat bo'lgan Favqulodda Vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda xarakat qilish davlat tizimi (FVDT) orqali amalga oshiradi.

Fuqaro muhofazasiga yuklatilgan, aholi va xalq xo'jaligini tabiiy ofatlardan, avariyalardan, halokatlardan muhofaza qilish, ularning oqibatlarini tugatishda qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarini o'tkazishga yo'naltirilgan vazifalarning ko'p qirrali va murakkab ekani, Fuqaro muhofaza rahbar xodimlar tarkibining tayyorgarligi yuksak bo'lishini talab etadi, hamda yuklatilgan vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishining eng muhim shartlaridan biri fuqaro muhofaza bo'limlarining boshliqlari ekstremal vaziyatlarda mustaxkam va uzluksiz boshqarishni ta'minlab borishlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi tabiiy ofatlar sodir bo'lishi mumkin: yer va tog' ko'chkilari; sellar, zilzila, bo'ronlar va boshqalar.

Bulardan tashqari turli texnogen tusdagi falokatlar va avariya sodir bo'lishi mumkinki, bulardan ham e'tiborni qochirmaslik, ogoh bo'lish, texnika havfsiziligi qoidalariga rioya etish zarur.

Obyektda quyidagi turdagi favqulotda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkin:

- Tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar;
- Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar;
- Ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlar.

Atrofdagi tabiiy muhit va potensial xavfli ob'ektlarning, favqulodda vaziyat manbalari paydo bo'lishini oldindan prognoz qilish va profilaktika qilishning ahvolini kuzatish va nazorat qilishni tashkil etilishiga, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, muxandislik-texnikaviy, ekologiya-muhofaza, sanitariya-gigiena, sanitariya-epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasida Fuqaro muhofazasiga oid bir qator xuquqiy me'yoriy hujjatlar va Vazirlar mahkamasining qarorlari kuchga kiritilgan. Jumladan:


- Aholini va xududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust)
- Fuqaro muxofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may)
- Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida(1999 yil 20 avgust)
- Radiatsiyaviy xavfsizlik tug'risida (2000 yil 31 avgust)
- Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr).
- Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) va boshq.

Fuqaro himoyasining asosiy vazifalari:

- 1.Aholini umumqirg'in qurollardan saqlash.
2. Xalq xo'jaligi korxonalarining urush sharoitida ishlash turg'unligini oshirish.
3. Qutqaruv va tiklovchi ishlarini olib borish.

Korxonada fuqaro muhofazasini tashkil qilish omillari yuqoridagilardan iborat.

Fuqaro muxofazasi tashkil etish sxemasi



Korxona territoriyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xavfli xodisalarga: zilzila, yong'in, portlash, kimyoviy zaharlanishlar kiradi.

Obyektda chang va zaharli gazlar mavjudligi ularning miqdori saqlanish qoidalari deganda, asosan atrof muhitga kuchli ta'sir qiluvchi va odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushuniladi. Korxonadagi avariyaalar, yong'in va portlash kabi favqulotda vaziyatlari yuzaga kelgan vaqtida sodir bo'lgan xavf darajasini ko'rsatadigan ikkita bildirish rejimini belgilanadi.

1. YUqori tayyorgarlik rejimi
2. Favqulotda rejim

Bunday xollar yuzaga kelgan vaqtida xokimiyatlarga, tuzilmalarga, tibbiy xizmatga, yong'in xavsizligi xizmatiga xabar berish kerak.

Kuchli ta'sir etuvchi zaxarli modda va chang bilan ishlovchi sexlarda ishchi va xizmatchilar ob'ekt fuqaro muhofazasi bo'limi (FM shtab) xodimlari tomonidan shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak.

Nafas olish organlarini muxofazalovchi shaxsiy ximoya vositalari – gazniqoblar, nafas olish organlarini turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroblardan va toksinlardan muhofaza qiladi.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

1. Filtrlovchi gazniqoblar (GP 5, GP 7, GP 9, PDF 2SH);
2. Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarning eng oddiy himoya vositalari:

1. Respirator;
2. CHangga qarshi matoli niqoblar;
3. Paxta dokali bog'gich.

Avariya qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarini rejalashtirish va amalga oshirishdan maqsad, aholini turli favqulotda vaziyatlardan himoyalash, shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish, avariya oqibatlarini qisqartirish hamda vayronalardan insonlarni olib chiqishga qaratilgandir.

Avariya qutqaruv ishlari quydagi vazifalarni amalga oshirish orqali olib boriladi.

1. FV ro'y bergan xududlarida razvedka ishlarini olib borish hamda xarakatlanish yo'nalishlarini rejalashtirish.
2. Bino qismlari, vayrona uyumlari orasidan shuningdek yonayotgan binolar ichidan insonlarni qidirish va olib chiqish.
3. Jabrlangan insonlarni, guruxlarga ajratgan xolda birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish hamda yaqin ambulatoriyalarga etkazish.

Boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga quydagilar kiradi:

1. Insonlarni ommoviy piyoda yoki transportda xarakatlanish yo'llarini ochish hamda xavfli jismlardan tozalash.
2. Gaz, elektr, suv quvur tiqimlari va boshqa tizimlarda yuz bergan avariyalarni to'xtatish, qutqaruv ishlarini o'tkazish.

Korxonada yong'in sodir bo'lganda xarakatlanish quydagi tartibda amalga oshiriladi. Sexda germetiklik buzilib yoki boshqa sabab bilan yong'in chiqqanda OPD turidagi signalizator ishga tushadi. Bu signalizator ishga tushishi bilan sexdagi navbatchi korxonaning yong'in xavfsizligi bo'limiga xabar beriladi va ishchilarning tartibli evakuatsiyasini ta'minlashni nazorat qilinadi. YOng'in ixavfsizligi bo'limi etib kelguncha ishchilar o'zlari OU 2, OU 9,OU 8 birlamchi o't o'chirgichlar yordamida yong'inni boshqa ob'ektga o'tib ketmasligini nazorat qiladi.

Yong'in xizmat xodimlari bilan bir vaqtda tibbiy tez yordam ko'rsatish xizmati ham etib keladi. FV oqibatlari tugatilishi bilan qutqaruv ishlari boshlanadi. Tartibni saqlashga e'tibor beriladi. YOng'in yoki avariya sodir bo'lishida odamlrni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo'llari bo'lishi binolarni loyihalash va qurish vaqtida hisobga olingan. YOng'in havfsizligi norma qodalariga asosan evakuatsiya yo'llari o'tga chidamli materiallardan tayyorlangan, harakat yo'lida hech qanday to'siqlar yo'q. Korxona binosida 2 ta chiqish evakuatsiya yo'llari mavjud.

Texnologik jarayonda ishlatiladigan xom-ashyolar ma'lum talab asosida omborlarda saqlanadi. Quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan, yopiq, quruq joyda, xarorat 30°C dan yuqori bo'lmagan, namlik 80% dan ko'p bo'lmagan joyda saqlanadi.

XULOSALAR

Xulosalar

1. O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish borasida adabiyotlar tahlili qilindi.
2. Toshkent shahridagi suv havzalarining ifloslantiruvchi manbalar tomonidan ifloslanishi monitoringi olib borildi.
3. Suv havzalarining ifloslanishini oldini olish borasida takliflar berildi.
4. Mehnatni muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarlari ishlab chiqildi.

**FOYDALANILGAN
ADABIYOTLAR
RO‘YXATI**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: «Ўзбекистон» 1998.
2. Ўзбекистон Республикаси “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни. Т., 1993 й.
3. Кудратов О. Саноат экологияси. Т.: Ўқитувчи. 1999.
4. Отабоев О., Набиев М. Инсон ва биосфера. Т.: Ўқитувчи. 1995.
5. Turobjonov S.M. va boshq. Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi. – Darslik. Т.: Faylasuflar jamiyati. 2011. – 180 b.
6. Ergashev A. Ekologiya, Т.2005.
7. Родионов А.И., Клушин В.Н., Систер В.Г. Технологические процессы экологической безопасности/ Основы энвайронменталистики - Калуга: Издательство Н.Бочкаревой, 2000.
8. Musayev M.N. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi. – Darslik. Т.: Faylasuflar jamiyati. 2011. – 320 b.
9. Qosimova S., Shokirova Sh. Atrof muhit muhofazasi, Т.: 2005.
- 10.Эргашев А. Умумий экология. Т.:2003.
- 11.Холлиев I., Ikromov A. Ekologiya. Т.: Talqin, 2004. – 224 b
- 12.Воронков Н.А. Основы общей экологии. М. 1999.
- 13.Петров К.М. Общая экология. Санкт-Петербург. 1998.
- 14.Тухтаев А., Хамидов А. Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. Т.:Ўқитувчи, 1994.
- 15.Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. Т.: Янги аср авлоди, 2005
- 16.Рахимова Х., Аъзамов А., Турсунов Т. Меҳнатни муҳофаза қилиш. Т. 2003.
- 17.Ҳо‘лдошев О. ва бoshq. Favqulotda vaziyatlarda fuqaro muhoqazasi. Т., 2010.